

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!



VATANPARVAR

MILLIY ARMIYA

YURTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

Gazeta 1992-yilning
24-iyunidan chiqa
boshlagan

2025-yil 14-mart
№11 (3125)



YURTIN QO'RIGANLAR SAFI BUZILMAS

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv_vatanparvar_uz



vatanparvar-bt@umail.uz



facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

Nuqtayi nazar



Rustam RASHIDOV, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i, harbiy fanlar doktori (DSc)

Mamlakatimizda so'nggi yillarda Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, mamlakatimiz sarhadlarining daxlsizligi, xalqimizning tinchligi va osoyishtaligi, jamiyatimizning barqaror taraqqiyoti yo'lida o'ziga xos qalqon bo'luvchi Qurolli Kuchlarimiz, shu jumladan milliy armiyamizning o'z o'rni va roli bor.

Qurolli Kuchlarimizni hozirgi zamон talablari assosida yangilash va modernizatsiya qilish, professional armiya darajasiga olib chiqish, bu boroda yetakchi tajribalarni tegishli tartibda o'rganish va armiyamizga tatbiq etish asnosida Vatani va xalqiga sadiq, o'z burchi va qasamiga sadoqatli, zamonaviy va ixcham, mobil va professional, yuksak jangovarlik va ma'naviy yetuklik xislatlariga ega milliy armiyamizni shakllantirish davlatimizning doimiy e'tiboridagi masala bo'lib kelmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigida ta'kidlaganidek, askar va serjantlarimiz, ofitser va generallarimizning azm-u shiojati, el-yurtga sadoqati tufayli xalqimizning tinch va osoyishta hayoti ta'minlanmoqda, mamlakatimizning mudofaa salohiyati mustahkamlanmoqda, milliy armiyamizning jangovar qobiliyati yuksalmoqda.

DAVLATIMIZ RAHBARINING bayram tabrigidan keyingi yillarda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar tufayli Qurolli Kuchlarimiz mamlakatimiz mustaqilligi, chegaralarimiz daxlsizligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ta'minlashning chinakam kafolatiga aylanib borayotgani, barcha qo'shin turlari zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlanayotgani, harbiy xizmatchilarining jangovar va ma'naviy

tayyorgarligi uzlusiz oshib, milliy armiyamiz ular uchun, yoshlari amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlar va yangilanishlar barcha sohalarda bo'lgani kabi, Vatanimiz qalqoni bo'lmissiz Qurolli Kuchlarimiz, shu jumladan milliy armiyamizda ham keng qamrovda va shiddatli tarzda olib borilmoqda, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, so'nggi 8 yil davomida mamlakatimiz mudofaa tizimi faoliyatini takomillashtirish, armiyamizning jangovar salohiyatini oshirish bo'yicha juda katta ishlar qilindi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining boshqaruv tizimi deyarli yangidan barpo etildi, shu bilan birga harbiy-ma'muriy sektorlar tuzildi. Armiyamizdagi qo'shin turlari o'rtaida o'zaro muvofiqlashtirilgan holda harakatlar olib borish hamda hamkorlikni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan mexanizmlar yo'lga qo'yildi, shuningdek Qurolli Kuchlarimizda eng murakkab vazifalarni ham tezkorlik bilan bajarishga qodir bo'lgan bo'linmalar tashkil etildi. Qo'shinlarning jangovar hamda ruhiy tayyorgarlik darajasi ancha o'sdi va uni muttasil oshirib borish bo'yicha doimiy ish olib borilmoqda.

Keyingi yillarda "**Xalq va armiya - bir tan-u bir jondir**" degan ezgu tamoyil assosida ulkan ishlar amalga oshirilayotgani, bugungi kunda fuqarolarimiz armiyaning har tomonloma yordami va ko'magini hayotning barcha sohalarida amalda his etayotganini sohada amalga oshirib

tayyorgarligi uzlusiz oshib, milliy armiyamiz ular uchun, yoshlari amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlar va yangilanishlar barcha sohalarda bo'lgani kabi, Vatanimiz qalqoni bo'lmissiz Qurolli Kuchlarimiz, shu jumladan milliy armiyamizda ham keng qamrovda va shiddatli tarzda olib borilmoqda, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, so'nggi 8 yil davomida mamlakatimiz mudofaa tizimi faoliyatini takomillashtirish, armiyamizning jangovar salohiyatini oshirish bo'yicha juda katta ishlar qilindi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining boshqaruv tizimi deyarli yangidan barpo etildi, shu bilan birga harbiy-ma'muriy sektorlar tuzildi. Armiyamizdagi qo'shin turlari o'rtaida o'zaro muvofiqlashtirilgan holda harakatlar olib borish hamda hamkorlikni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan mexanizmlar yo'lga qo'yildi, shuningdek Qurolli Kuchlarimizda eng murakkab vazifalarni ham tezkorlik bilan bajarishga qodir bo'lgan bo'linmalar tashkil etildi. Qo'shinlarning jangovar hamda ruhiy tayyorgarlik darajasi ancha o'sdi va uni muttasil oshirib borish bo'yicha doimiy ish olib borilmoqda.

Kelinayotgan ulkan ishlarning samarasini sifatida talqin etish mumkin.

Mamlakatimiz Qurolli Kuchlari o'z faoliyatini to'laqonli tarzda olib borishi uchun, avvalo uning **huquqiy asosi** ham pishiq va puxta qilib yaratilgan bo'lishi lozim. 2023-yil 30-aprelada bo'lib o'tgan umumxalq referendumi assosida qabul qilingan **Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi** Qurolli Kuchlarimiz faoliyatining huquqiy asosini yanada mustahkamladi, desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Yangilangan Konstitutsiyamizning 27-bobi Mudofaa va xavfsizlik masalalariga bag'ishlangan bo'lib, uning 152- va 153-moddalarida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari mamlakatimizning davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuzilishi, O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga egaligi hamda Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanishi bayon etilgan.

SHUNDAN KELIB CHIQQAN HOLDA, mamlakatimiz mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash va Qurolli Kuchlarimiz qudratini oshirish "**O'zbekiston - 2030**" strategiyasida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilab olindi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda Qurolli



Kuchlarimiz qo'mondonlik tarkibi, joylardagi hokimiyat idoralari va xalqimiz bilan birgalikda bir tan-u bir jon bo'lib harakat qilayotgani e'tiborga molik. Bu borada amalga oshirilgan ishlaridan biri sifatida mamlakatimiz mudofaa salohiyatini oshirishda davlat va jamoat tuzilmalarining o'zaro muvofiqlashtirilgan holda faoliyat olib borishining yo'lga qo'yilganligi, armiyamiz qudratini oshirish faqat davlatimiz va Qurolli Kuchlarimizning vazifasi emas, balki butun jamoatchiligidan mas'uliyatlari vazifasi ekanligi tobora ayon bo'lib bormoqda. Bu borada belgilab olingan vazifalarni amalga oshirishda Qurolli Kuchlarimiz qo'mondonlik tarkibi joylardagi mahalliy hokimiyat idoralari va keng jamoatchilik bilan birgalikda bir tan-u bir jon bo'lib harakat qilayotganini e'tirof etishimiz zarur.

"Harbiy okruglarga, harbiy ma'muriy sektorlarga men qo'yan eng katta vazifa – xalq bilan armiya birligini ta'minlash, inson qadrini ulug'lash haqida bo'ldi. Bunda sizlar yetakchi, har bir harakatingiz bilan yoshlarga namuna bo'lasiz, deb ishonaman", degan edi davlatimiz rahbari. Muhtaram Prezidentimizning ushbu so'zlaridan ham inson qadrini ulug'lash tamoyili Qurolli Kuchlarimiz tizimida ham namoyon bo'layotganligi, harbiy

YANGI O'ZBEKISTON MILLIY ARMIYASI:

ZAMONAVIY YONDASHUV ASOSIDAGI O'ZGARISH



xizmatchilar uchun munosib xizmat va yashash sharoitlari yaratilayotganini anglash mumkin. Bu borada amalga oshirilgan amaliy ishlar sirasiga so'nggi 8 yilda 10 mingdan ortiq harbiy xizmatchi imtiyozi kreditlar asosida uy-joy bilan ta'minlanganini hamda harbiy xizmatchilar xizmat muddatini o'tab bo'lganidan keyin ish va tibbiy xizmatlar bilan ta'minlanishi ham doimiy e'tiborda bo'lib kelayotganini alohida qayd etib o'tish joizdir.

Ta'kidlash joizki, oxirgi sakkiz yilda harbiy sohaning barcha yo'nalishlarida amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlar natijasida milliy armiyamizning qiyofasi ham, qo'shnarning tayyorgarlik darajasi ham o'zgardi. Harbiy qism va poligonlardagi infratuzilma, askar va ofitserlarning sharoitlari yaxshilandi. Bunday ishlar butun Qurolli Kuchlarimiz tizimida izchil davom ettirilib, jangovar bo'linmalar imkoniyatlari kengaytirilmoqda, shu bilan birga davlat chegaralari xavfsizligini ta'minlashning yangi tizimi ham amaliyotga joriy qilinmoqda.

Ma'lumki, zamonaviy bosqichda har qanday tuzilma va tashkilot moddiy jihatdan yetarli darajada ta'minlangan bo'lsa-da, ammo unda samarali boshqaruv mexanizmlari joriy etilmagan bo'lsa, mazkur tuzilmaning faoliyatni muvaffaqiyat keltirmaydi. Mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tizimida ham ushbu zamonaviy yondashuvdan kelib chiqqan holda, 2022-yil yanvarida **O'zbekiston Respublikasi mudofaaasini**

boshqarish milliy markazi ish boshlaganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Mudofaa vazirligida barpo etilgan ushbu markazning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 30 yilligi arafasida ishga tushirilgani Vatanimiz himoyachilariga chin ma'noda bayram tuhfasi bo'ldi. Qo'shinlar boshqaruvining eng zamonaviy shakllarini mujassam etgan, barcha kuch tuzilmalari faoliyatini muvofiqlashtirib borishga ixtisoslashgan mazkur majmua yuqori texnologik imkoniyatlari bilan yurtimiz havo sarhadlarini, o'quv muassasalari va poligonlardagi mashg'ulotlar jarayonini real vaqtida kuzatish, bo'linmalarning harakatini uzluksiz

aloqa tizimlari orqali nazorat qilishni ta'minlaydi. Shuningdek, Mudofaa boshqarish milliy markazida sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, bunda harbiy-ma'muriy sektorlarning ishtiroti, qo'shnarning kundalik va jangovar faoliyati bo'yicha ma'lumotlar to'planib, tizimli monitoring olib boriladi.

SHU O'RINDA O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo'mondoni Sh. Mirziyoyevning "**Harbiy ilmsiz harbiy bilim bo'lmaydi**", degan purma'no so'zlaridan kelgusida milliy armiyamizning ham jangovar, ham ma'nan yetuk bo'lib shakllanishi uchun avvalo harbiy ilmni rivojlantirish, zamonaviy harbiy ilmni egallagan malakali kadrlar, professor-o'qituvchilar jamoasini shakllantirish, so'ngra esa mazkur malakali mutaxassislar va ilm jamoasi yosh kadrlarni tayyorlashda jonbozlik ko'rsatishlari lozimligini anglash mumkin. Ta'kidlash joizki, bundan **10-12 yillar** ilgari harbiy ilmga bo'lgan e'tiborning sustligi, sohada zamonaviy ilmiy tadqiqotlar olib borilishiga rag'batning yo'qligi tufayli respublikamiz oliy harbiy ta'lim muassasalarida ilmiy salohiyat **20 foizga** qadar tushib ketgan edi. So'nggi yillarda sohada olib borilgan o'zgarishlar harbiy ilm sohasining ham rivojiga ijobja ta'sir ko'rsatdiki, natijada bugungi kunda mamlakatimiz oliy harbiy ta'lim muassasalaridagi ilmiy salohiyatga ega malakali kadrlar, professor-o'qituvchilarining nufuzi birmuncha o'sib, **70 foizga** yetdi.

Harbiy xizmatchilar, shu jumladan komandirlar tarkibining professional tayyorgarligini oshirish milliy armiyamizni yanada rivojlantirishning eng muhim sharti ekanligini inobatga olgan holda, Qurolli Kuchlar Bosh shtabi hamda harbiy okruglar boshqaruv apparatlari ofitserlarini, brigada komandirlari va ularning o'rinosbarlarini o'qitish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida yangicha tizim yo'nga qo'yilganini namuna sifatida alohida ko'rsatib o'tish joizdir. Unga ko'ra, soha uchun kadrlar tayyorlashda nazariya va amaliyotni imkon qadar yaqinlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

BUGUNGI KUNDA milliy armiyamizning kuch-qudrati va salohiyati ortib bormoqda, harbiy xizmatchilarimiz esa o'zining yuksak kasbiy tayyorgarligi bilan alohida e'tibor va

e'tirofga sazovor bo'lmoqda. Bir necha rivojlangan armiyalar ishtirotida bo'lib o'tayotgan Xalqaro armiya o'yinlarida harbiy xizmatchilarimizning munosib ishtiroti buning yaqqol isbotidir. Shuningdek, 2024-yil davomida Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilar va mutaxassislar turli xalqaro harbiy musobaqlarda faol qatnashib, bir qator faxrli o'rirlarni egalladi. Pokistonda VII Xalqaro "**Jamoah ruhi**" musobaqasida 1-o'rin; Rossiyada "**Sayan yurishi**" musobaqasida 3-o'rin; Turkiyada "**Eng ilg'or mengan**" musobaqasida 1-o'rin; **Harbiy-kasbiy tayyorgarlik xalqaro olimpiadasida** 1-o'rin; Koreyada "**Xalqaro ilmiy jangovar tayyorgarlik**" musobaqasida 1-o'rin; Koreyada I **xalqaro menganlar musobaqasida** 2-o'rin; Buyuk Britaniyada "**Kembriya patruli**" musobaqasida 2-o'rin; MDHga a'zo davlatlar armiyalari o'rtasida "**O'q otish sporti**" musobaqasida 1-o'rin; MDHga a'zo davlatlar armiyalari o'rtasida "**Harbiy sport kompleksi ko'pkurashi**" musobaqasida 2-o'rin kabi yutuqlar va zafarli yurishlar ana shular jumlasidandir.

Davlatimiz rahbarining mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigida hozirgi vaqtida, dunyo miqyosida turli xavf-xatarlar, qurolli to'qnashuvlar tobora avj olib borayotgan o'ta murakkab vaziyatda Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini, harbiy xizmatchilarining jismoniy va ma'naviy shayligini oshirish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etayotgani ta'kidlab o'tildi. Shundan kelib chiqib, milliy armiyamizning jangovar shayligi va salohiyatini yanada oshirish, armiyamizni chin ma'noda zamonaviy armiyalar qatoriga olib chiqish yuzasidan kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan bir qator vazifalar va chora-tadbirlarning belgilab olinishi ham muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlash zarur.

BIRINCHIDAN, malakali harbiy kadrlar tayyorlash, harbiy ta'linda ilg'or uslublarni ommalashtirish masalalari dolzarb bo'lib turibdi. Harbiy o'qituvchi va mutaxassislarining malakasini oshirish, Qurolli Kuchlar akademiyasini yetakchi harbiy ilm-fan dargohiga aylantirish zaruriyati

tobora namoyon bo'lib bormoqda. Shuningdek, Qurolli Kuchlar akademiyasi negizida ish boshlagan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o'rganish ilmiy-tadqiqot instituti kelgusida harbiy ilmiy faoliyat olib borishning ilg'or markazlaridan biriga aylanmog'i lozim.

IKKINCHIDAN, Qurolli Kuchlarni zamonaviy qurol-yarog' hamda harbiy texnika bilan ta'minlash, mavjudlarini modernizatsiya qilish ham harbiy qurilish sohasidagi eng ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolishi lozim. Ushbu maqsadda Qurolli Kuchlarni yanada rivojlantirish bo'yicha konseptual dastur qabul qilish va uning asosida butun Qurolli Kuchlar tizimini modernizatsiya qilish masalasi ham ustuvor ahamiyat kasb etadi.

UCHINCHIDAN, Qurolli Kuchlar Bosh shtabi faoliyatini ham sifat jihatdan yangi pog'onaga olib chiqish, shuningdek havo hujumidan mudofaa tizimiga ham zamonaviy tajribalarni tatbiq etish masalasi e'tiborga molik.

TO'RTINCHIDAN, jahon axborot makonida keskin kurash ketayotgan hozirgi vaziyatda axborot xavfsizligini ta'minlash, yoshlarni yot g'oyalardan himoya qilish, harbiy xizmatchilarining psixologik tayyorgarligi va jangovar ruhini mustahkamlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ona yurtga mehri va sadoqatini oshirishga yanada ko'proq ahamiyat berish muhim vazifalarimizdan biri bo'lishi lozim.

BESHINCHIDAN, Qurolli Kuchlarimiz, shu jumladan armiyamiz qo'mondonlik tarkibini zamonaviy operatsiyalarni mukammal rejalashtirish, qo'shnarni oqilona boshqarish, mavjud kuch va vositalarni samarali qo'llash bo'yicha malakasini muttasil oshirib borish zarurligini ham ta'kidlab o'tmoqchimiz. Bu borada rahbarlik va qo'mondonlik lavozimlariga istiqbolli kadrlar zaxirasini yaratish, ularni bu lavozimlarga bosqichma-bosqich tayyorlash hamda tanlov asosida tayinlash bo'yicha ham tizimli ish olib borish muhim.

OLTINCHIDAN, Qurolli Kuchlarimiz harbiy xizmatchilarini va faxriylarini ijtimoiy hamda huquqiy jihatdan himoya qilish, ularni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga doir ishlarni izchil davom ettirish lozim.

XULOSA O'RNI DA TA'KIDLASH JOIZKI, istiqlol davrida O'zbekiston armiyasi juda murakkab va sharafli yo'lni bosib o'tdi. Yosh davlatimizning o'ta og'ir shakllanish yillarida aynan Qurolli Kuchlar mamlakatimiz mustaqilligi, xalqning tinch hayoti va farovonligini ta'minlash, demokratik islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning ishonchli kafolati bo'lib xizmat qildi.

Kelgusida Qurolli Kuchlarimiz, shu jumladan milliy armiyamiz faoliyatini ilmiy nuqtayi nazardan o'rganish, ilg'or xorij tajribasini tegishli tartibda tatbiq etish hamda milliy armiyamiz faoliyatini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalarni ilgari surish keng jamoatchilik, shu jumladan ilmiy doira vakillari oldida turgan sharafli ishlardan biri bo'lishi lozim.

Havo-desant tayyorgarligi



Oson cheksiz imkoniyatlar kengligidir. Unga qadam qo'yish uchun jasorat, puxta tayyorgarlik va eng muhim, xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish shart. Parashyut bilan amaliy sakrash nafaqat adrenalin va hayajon manbai, balki mukammal tayyorgarlik va mas'uliyat hamdir.



PARASHYUT BILAN SAKRASHDA

Shu kunlarda Mudofaa vazirligi havo-desant bo'lmalari harbiy xizmatchilari Toshkent harbiy okrugidagi "Markaz" desantchilar tayyorlash bazasida parashyut bilan amaliy sakrash mashg'ulotlarida ishtirok etmoqda.

Desantchilarining nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini yanada mustahkamlash maqsadida tashkil etilgan mashg'ulotlarda, dastlab ularning yer tayyorgarligi va parashyutlarining soz holatda ekanligi tekshirildi. Xususan, harbiy xizmatchilar havoda bajaradigan xatti-harakatlarini yerda turgan holatda qayta-qayta takrorlab, parashyutining soz holati yo'riqchilar yordamida bir necha bosqichda ko'zdan kechirildi. Chunki mashg'ulotlarda ta'kidlanganidek, parashyut bilan sakrashda ikkinchi marta xato qilishning imkonи yo'q.

Mohir desantchining mohirligi uning nafaqat sohani professional o'zlashtirgani, balki psixologik tayyorgarligiga ham bog'liqdir. Chunki har qanday sakrash hayajon va tajriba uyg'unligida kechadi.

Shuningdek, desant parashyut bilan amaliy sakrashdan oldin to'rt bosqichli – "Parashyut kiyish chizig'i", "Guruh komandiri tekshiruv chizig'i", "Vzvod komandiri tekshiruv chizig'i", "Havo-desant ofitseri tekshiruv chizig'i" kabi nazoratlardan o'tadi va shundan so'ng "ichoq"qa tomon ruxsat beriladi.

Parashyut bilan sakrash tashqaridan qaraganchalik jo'n va oson ish emas. Buning uchun professional murabbiylar



XATOQA O'RINK YO'

rahbarligida maxsus tayyorgarliklardan o'tish, mashg'ulotlar davomida muhim texnikalarni o'zlashtirish lozim. Bunda har bir desantchi parashyutni o'zining ajralmas qismiga aylantirishi, tana holatini to'g'ri ushlay bilishi, yerga ilk tushish malakasini mukammal o'zlashtirishi shart. Shu kabi nazorat tekshiruvlari, qolaversa bungacha bo'lgan yerdagi mashqlarda har jihatdan chiniqqan desantchilar start chizig'ida vertolyot tomon harakatlanib, so'ngra havoga ko'tarildi. Harbiy xizmatchilar bo'linmasi va o'zlariga yuklatilgan jangovar vazifadan kelib chiqib, 600 va 1 200 metrgacha bo'lgan balandlikdan parashyutlar bilan sakradi.

Shu o'rinda bir ma'lumot. Birgina "yerga qo'nish" texnikasining o'zi desantchining bu boradagi mahoratini yaqqol belgilay oladi. Ya'ni desantchi doim qo'nish lahzalarida tizzalarni yengil bukkan holda, tanasini jarayonga moslashtirishi, qo'l va oyoq harakatlarini muvofiqlashtirib borishi zarur.

Har bir sakrash – yangi bir sinov. Buni to'g'ri tayyorgarlik va muhim qoidalarga amal qilish bilan muvaffaqiyatga aylantirish mumkin.

Yuksak mahoratlarini namoyish qilgan o'g'lonlar berilgan vazifalarni a'llo darajada bajarib, belgilangan amaliy mashqlarni muvaffaqiyatli yakunladi.

**Kapitan Bobur ELMURODOV,
"Vatanparvar"**



Kichik serjant ixтиiyor MAMAJOV

DINIY BAG'RIKENGLIK



Yurtimizda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik munosabatlarning ta'minlanishi, avvalo dinlararo ziddiyatlarning oldini olish barobarida turli din vakillari o'rtasida o'zaro hamkorlik, birdamlik va hamjihatlikning shakllanishiga zamin yaratmoqda. Dunyo miqyosida bag'rikeng yurt sifatida e'tirof etiladigan jonajon Vatanimizda bugungi kunda **130 dan ortiq millat va elat, 16 ta diniy konfessiya** vakillari tinch-totuv, hamjihat bo'lib yashamoqda.

Mamlakatimizda etnik o'ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg'unlashtirishda **157 ta milliy madaniy markaz va 38 ta do'stlik jamiyat** faoliyat ko'rsatmoqda. Ular o'z madaniyatini, tili, hunarmandchiligini rivojlantirib, bir-birini o'zaro boyitishga, ko'p millatli yagona oila tuyg'usini mustahkamlashga salmoqli hissa qo'shmaqda. Ularning o'z faoliyatini amalga oshirishi va mamlakat hayotida faol ishtirot etishi uchun barcha imkoniyatlar muhayyo etilgan. Mamlakatimizdagi ta'limga muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonlari o'zbek, qoraqalpoq, rus, tojik, qozoq, qirg'iz va turkman tillarida olib borilmoqda, qardosh tilli maktablarda o'qiyotgan farzandlarimiz davlat hisobidan darslik va badiiy adabiyotlar bilan ta'minlanmoqda.

Bugun insoniyat mutlaqo o'zgacha muhit, yangicha talab va ilgari kuzatilmagan xavf-xatar hamda tahdidlar kuchaygan bir sharoitda yashashiga to'g'ri kelmoqda. Mana shunday murakkab bir sharoitda dunyo miqyosida tinchlik va bar-qarorlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash tobora dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. O'z navbatida, davlat turli dinlarga e'tiqod qiluvchi fuqarolar, tashkilotlar o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishiga ko'maklashadi, diniy mutaassiblik hamda ekstremizmga munosabatlarni qarama-qarshi qo'yish va keskinlashtirishga, turli konfessiyalar o'rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo'l qo'yaydi.

MUNOSABATLARI



"O'zbekiston - umumiyyiyimiz" degan ezgu g'oya yurtimizda barcha milliy madaniy markazlarning shioriga aylangan. Bu global miqyosda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda hukm surayotgan millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, do'stlik va birdamlik muhiti O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada yuksaltirishga zamin yaratmoqda. Davlatimiz diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvatlaydi.

Diyorimizda azaldan zardushtiylik, buddaviylik, nasroniylik, moniylik hamda islom dini vakillari o'zaro inoq va tinch-totuvlikda istiqomat qilgan. Yurtimizdagi madaniyat markazlari hisoblangan ko'plab shaharlarda masjid, cherkov, sinagoglar faoliyat ko'rsatgan. Ushbu muqaddas maskanlarda turli denga mansub millat va elatlar o'zlarining diniy marosimlarini emin-erkin ado etgan. Albatta, mazkur holatni hozirgi vaqtida yurtimizda yashovchi turli dinlarga e'tiqod qiluvchi barcha millatlar va elatlarning o'zaro munosabatlari misolida ham ko'rish mumkin. Respublikamizda millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik muhitini asrab-avvaylash orqali tinchlik va

barqarorlikni mustahkamlashdan barcha din vakillari birdek manfaatdor.

O'zbekistonda millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, konfessiyalararo hamjihatlik inoqlik va birdamlikning nodir timsoli sifatida namoyon bo'lib, barcha din vakillariga nisbatan bag'rikenglikning ijobjiy namunasi ekanidan dalolat beradi. Qayd etish joizki, dunyo dinlari o'z mohiyatiga ko'ra, o'zida ezgulik, tinchlik, do'stlik, bunyodkor g'oyalarni mujassam etadi. Din insonlarni halollik va poklik, mehr-shafqat, birodarlik, bag'rikenglikka da'vat etadi. Ma'naviyatimizning uzvii qismi - xalqimizga xos etnik madaniy va diniy bag'rikenglikning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi, buni o'zga din vakillari ham e'tirof etadi.

2024-yil 16-noyabr kuni poytaxtimizda Din ishlari bo'yicha qo'mita, Millatlararo munosabatlari va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi hamda O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi hamkorligida **"Yangi O'zbekistonda diniy bag'rikenglik"** mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tgan edi. Mazkur anjumanda o'nlab davlatlardan mutaxassislar, YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi vakillari, dinshunos ekspertlar, islomshunoslar, milliy madaniy markazlar, turli diniy konfessiyalar vakillari, jamaat

tashkilotlari, professor-o'qituvchilar qatnashdi. Unda Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O'zbekiston yeparxiyasi rahbari Mitropolit Vikentiy: "President Shavkat Mirziyoyev barcha odamlar tinchlik va hamjihatlikda yashashi ta'minlashini qo'llab-quvvatlab, targ'ib qilib kelmoqda. Bu esa diniy bag'rikenglikning muvaffaqiyat kalitidir. Keyingi yillarda O'zbekiston turli millatlar o'rtasida ezgulik, tinchlik va totuvlik, bag'rikenglik va do'stlik siyosatini tarannum etayotgan mamlakat sifatida dunyoda tan olinmoqda", deya ta'kidlashi mamlakatimizda barcha diniy konfessiya vakillarining yurtimizda mazkur sohada amalga oshirilayotgan davlat siyosatidan mammun ekanini anglatdi.

Shuningdek, mazkur konferensiyada Turkiyaning Saljuq universiteti Saljuq tadqiqotlari instituti mudiri, professor Mustafa Demirji O'zbekistondagi konfessiyalararo muloqot va diniy bag'rikenglik borasida olib borilayotgan siyosat ijobjiy taassurot uyg'otganini qayd etdi: "O'zbekiston Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashgan, turli millat va xalqlar bir yerda jamlangan yurt hisoblanadi. Bu esa o'lkani sivilizatsiyalar tutashgan manzilga aylantirgan. Bunday yurt dunyoning boshqa joyida topilmaydi".

Malayziya Islom ilmlari universiteti professori Abd Rahman Mohd Rosmizi bildirgan fikr ham e'tiborga molik: "Islom dini ta'limotiga ko'ra, Allah taolo insonlarni turli xalq va millatlarga bo'lib yaratgan va ularning asosiy maqsadi yer yuzida hamjihatlikda va hamkorlikda yashashdan iborat. Yurtingizda bu borada olib borilayotgan ishlar yuksak darajada ekani o'z tasdig'ini topgan".

Dunyo miqyosida vujudga kelayotgan tahlikali vaziyatlar, to'qnashuvlar tinchlik-totuvlikning qadrini yanada oshirmoqda. Bu esa jahonda ekstremizm, radikalizm va terrorizmga qarshi kurashda ta'sirchan samarador usullarni qo'llashda diniy-ma'rifiy sohada o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borish, eng avvalo, insonparvarlik, bag'rikenglik g'oyalarni targ'ib etish orqali tinchlik va xotirjamlikka birgalikda erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda bag'rikenglik muhitining qaror topishi, avvalo dinlararo ziddiyatlarning oldini olish orqali turli din vakillari o'rtasida o'zaro hamkorlik, birdamlik va hamjihatlikning shakllanishiga zamin yaratadi. Mazkur omil yurt tinchligi va taraqqiyotiga, umuminsoniy madaniyat va ma'naviyat rivojiga xizmat qiladi.

Mansur MUSAYEV, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i, siyosiy fanlar doktori

Uch avlod uchrashuvi



TARIX VA KELAJAK YUZLASHISHI

Chirchiq oliv tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti haqida eshitgansiz, shundaymi? To'g'ri aytasiz. G'alati savol berdim. Chunki bu bilim yurti otaxon ta'lif dargohi hisoblanadi. Bir asrlik tarixga ega. U yillar davomida ming-minglab harbiy xizmatchilarni tayyorlab, qo'shinlarimizga yetkazib bergen.

va yorug', adabiyotlar yetarli. Demak, Vatan himoyachilarining ijtimoiy-himoyasi doimiy tarzda davlatimiz, e'tiborida. Qani endi, navqironligimga qaytsam-u, mana shu bilim yurtida qayta ta'lif olsam. Ammo ko'zlar chaqnab turgan izbosarlarimizga qarab, ko'nglim ravshan tortdi. Negaki ular yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmoqda. Shunga yarasha

bugungi uchrashuv har birimiz uchun manfaatl bo'ldi, deb bemalol aytu olaman. Biz bolalikka qaytgandek bo'ldik. Ustozlar va do'stlar bilan diyordorlashdik. Yoshlar esa tajribalarimizdan bahra oldi.

Umuman olganda, shu kuni ko'ngillar qayta topishdi. Qisqasi, tarix yana bir bor jonlandi. Katta hayotiy tajribalarga ega generallar, komandirlar o'gitlari, o'rta avlod vakillarining fidokorligi, matonati yoshlarga chinakam shijoat, kuch va g'ayrat bag'ishladi.

– Prezidentimiz tomonidan biz, yoshlarga katta qulayliklar yaratib berilmoqda, – deydi kursant Oybek



Muassasada 8 ta yo'naliish bo'yicha kursantlar chuqur o'qitiladi. O'z kasbining fidoyilari bo'lgan professor-o'qituvchilar shogirdlariga zamон talablaridan kelib chiqib, puxta ta'lif beradi. Darvoqe, hozirgi kunga qadar mazkur dargohdan 10 nafardan ortiq general, mudofaa vaziri, harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni va qo'shilma komandiri yetishib chiqqan.

Qisqasi, yaqinda ana shu joyda bo'lganimda, "Uch avlod uchrashuvi va "Ustoz-shogird" an'analarini yanada mustahkamlash" mavzusida tadbir o'tkazilayotganiga guvoh bo'ldim.

Muloqotlar ochiq va samimiy ruhda o'tdi. So'z olganlar jamiyatimizning kecha va buguni xususida fikr yuritdi. Rivojlanish, o'sish, imkoniyatlar, natijalar, yutuqlar e'tirof etildi. Izlanish, o'rganishga intilish marrani zabt etishda qo'l keladigan omillardan biri ekani hayotiy misollar yordamida keltirib o'tildi. Yoshlik insonga beriladigan in'omlardan eng muhim ekani va undan o'rinni foydalanish zarurligi alohida

ta'kidlandi. Chunki salohiyatli, bilimdon, o'z fikriga ega, dunyoqarashi keng, maqsadi aniq yoshlar har qanday mamlakatning ertangi kunini yanada nurafshon qiladi.

– 2005–2008-yillar davomida Chirchiq oliv tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida rahbar bo'lib xizmat olib borganman, – deydi zaxiradagi general-major Qosimali Ahmedov. – O'zim ham ayni bilim yurtida kursant bo'lganman. O'sha vaqtlardan shart-sharoitlar hamingqadar edi. Kursantlar uchun o'quv qurollari yetishmas, amaliy mashg'ulotlar soni ham, sifati ham past edi. Lekin shunga qaramay, harbiy xizmatchilarning bilim-ko'nikmasini yanada oshirishga harakat qilar edik. Bugun-chi? Bugun vaziyat tamoman boshqacha. Kursantlar uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgan. O'g'onlар harbiy sohaning muhim sirlarini chuqur o'rganish barobarida chet tillarini ham o'zlashtirayotganiga guvoh bo'ldik. Biz bunday qulayliklarni orzu qilardik. Yigitlar ta'lif olayotgan auditoriyalarni ko'ring, shinam

natijalar ham ko'rsatyapti.

Aytgancha, mehmonlar orasida bundan 25 yil burun, ya'ni 2000-yil ayni dargohni tamomlab, milliy armiyamizning jangovar qudratini yanada oshirishga munosib hissa qo'shgan bitiruvchilar ham bor edi.

– Bugungi diyordorlashuv yoshlikni yana bir bor eslashga zamin yaratdi, – deydi Qurolli Kuchlar faxriysi Alisher Orifjonov. – Ta'lif-tarbiya olgan, orzular qilgan qadron maskanimizda safdoshlar bilan yillar o'tib, qayta ko'rishdik. Juda hayajonli. Hamma o'zgargan. Ta'kidlash kerakki, oramizdan generallar, mudofaa vazirlari va komandirlar yetishib chiqdi va ular chin ma'noda bizning faxrimizga aylangan. Yana bir narsani alohida ta'kidlashni joiz deb topdim, bugun muvaffaqiyat tomon qo'yilgan qadam, ertaga o'z samarasini, albatta beradi. Bunga o'zimiz erishgan yutuqlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Kuch-g'ayratga to'lib-toshgan yoshlar ham ertaga qo'shinlarimiz saflariga borib, xizmat qiladi. Vatan tinchligini ta'minlab, xalqimiz osoyishtaligini asrashga kirishadi. Shunday ekan,

Zaripov. – Bugungi uchrashuvdan har birimiz katta taassurot oldik. Yillar chig'irig'ida toblanib, tajriba to'plagan ustozlarning o'gitlariga qulq osdik. Bilim yurtining shonli tarixi, erishgan yutuqlari-yu natijalari xususida suhabat qurdik. Generallar o'z xizmat faoliyatlar bilan o'rtoqlashdi. Albatta, biz ham maqsad va rejalarimizni o'rtaga tashladik. Muhimi, bugun tarix bilan kelajak yuzlashdi. Albatta, samarasini bermay qolmaydi. Chunki biz keksa avlod vakillariga va milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalanishimiz, qolaversa, harbiy-vatanparvarlik tuyg'ularini qalblarimizga chuqur singdirish eng muhim masalalardan hisoblanadi.

Tadbir yakunida Qurolli Kuchlar Markazi ashula va raqs ansambl san'atkori lar tomonidan Vatanni, hurlikni madh etuvchi kuy-qo'shiqlar ijro etildi. Mehmonlar hamda xizmat burchini ado etish vaqtida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning oila a'zolariga esdalik sovg'alar ulashildi.

**Kapitan Shohrux SAIDOV,
"Vatanparvar"**

Bahrom ABDURAHIMOV

Jasorat maktabi



NUKUSDA ILK MAVSUM NIHOYASIGA YETDI

O'n kun egniga harbiy libos kiyib askariy hayot kechirish, yurt himoyachilariga xos yurish-turish qoraqalpog'istonlik 100 nafar "Jasorat maktabi" ishtirokchisi uchun haqiqiy hayot matabiga, vatanparvarlik tuyg'ulari shakllanadigan maskanga, tarbiya o'chog'iga aylandi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan "Jizzax tajribasi" loyihasi doirasida yo'ldan adashgan, nazoratdan chetda qolgan yoshlarga ko'mak berish, ularni to'g'ri yo'lga qaytarish, ma'naviyati va madaniyatini yuksaltirish maqsadida "Jasorat maktabi" o'quv yig'inalari bugun minglab yoshlarimizning hayot matabiga aylangan muqaddas dargoh bo'lib xizmat qilmoqda.

"Nukus" umumqo'shin poligoni negizida boshlangan 10 kunlik harbiy-vatanparvarlik yig'ini hayot yo'lini to'g'ri izga solmoqchi bo'lgan yoshlarga yo'lko'r-satkich mayoq singari kelajak uchun ulkan rejalar bilan katta hayotga kirib borishiga ko'mak bermoqda. Yig'in ishtirokchilari 10 kun davomida shunchaki kun o'tkazishi emas, balki qat'iy belgilangan kun tartibi asosida mashg'ulotlarda ishtirok etib, kasb-hunar o'rganishi, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashi, ilk harbiy ko'nikmalarga ega bo'lishiga alohida e'tibor qaratildi.

Ishtirokchilarga ust-boshlar berilib, ichki tartib-intizom, harbiycha yurish-turish hamda mashg'ulot jadvali



tanishtirildi. Harbiycha hayotga moslashuv jarayonining oson kechishini ta'minlash maqsadida guruhlarga malakali ofitsier va serjantlar biriktirildi.

Mashg'ulotlar davomida yoshlar bilan ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik soatları, "Zakovat" intellektual o'yini, turli viktorina va suhbatlar tashkil etildi. "Qo'mondon va yoshlar" uchrushuvi, davlat va jamoaat tashkilotlari, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari tomonidan mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan profilaktik tadbirlar hayot yo'lini iziga solmoqchi bo'lgan yosh avlod qalbida kelajakka umid uchqunlarini yoqib, ulkan orzularga zamin yaratdi.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkillashtirish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish maqsadida ular bilan turli sport o'yinlari va musobaqalar, jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlari o'tkazildi. Xususan, harbiy okrug qo'mondonligi, Yoshlar ishlari agentligi hamda Milliy gvardiya

hududiy bo'linmalari bilan hamkorlikda "Biz - sog'lom turmush tarafdomiz!" shiori ostida arqon tortish, stol tennisi, armrestling, tosh ko'tarish, kamondan o'q otish, pichoq uloqtirish, shaxmat-shashka hamda boshqa sport turlari bo'yicha o'tkazilgan musobaqalar yoshlarda o'ziga bo'lgan ishonchni orttirib, ularni jamoaviylikka, bir yoqadan bosh chiqarib harakatlanishga, sog'lom turmush tarzini odat qilishga undidi.

Madaniy hordiq chiqarishni ta'minlash uchun o'tkazilgan konsert dasturlari, davra suhbatlari, spektakl tomoshalari ishtirokchilarga xush kayfiyat ulashdi.

Ta'kidlash joizki, "Jizzax tajribasi" asosida boshlangan yig'in Qoraqalpog'iston Respublikasi yoshlari orasida ham katta qiziqishga sabab bo'lmoqda. Bu yil hisobidan yig'inning birinchchi mavsumi o'z nihoyasiga yetib, 100 nafar qoraqalpog'istonlik yoshda ulkan motivatsiya, kelajakka yangi orzu va umidlarni uyg'otgani bilan ahamiyatlbo'ldi.

"Jasorat maktabi" yig'inining yopilish marosimida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'mondonligi, kuch tuzilmalari vakillari, Yoshlar ishlari agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi rahbariyati, O'zbekiston yoshlar ittifоqi hamda biriktirilgan davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, yoshlar va harbiy xizmatchilar ishtirok etdi. So'z olganlar yig'in bitiruvchilarini samimiy muborakbod etarkan, kelgusida hayot yo'llarida omad va zafarlar tilab qolishdi. Mamlakatimizda yoshlarning har tomonlama kamol topishi uchun haqiqatan ham keng imkoniyatlar mavjudligi ta'kidlandi.

Yig'in davomida yuqori natijalarni qo'lga kiritgan yoshlar Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'mondonligi hamda hamkor tashkilotlar tomonidan faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi. Barcha ishtirokchilarga yig'inni o'tagani munosabati bilan sertifikatlar tarqatildi.

**Podpolkovnik Timur NARZIYEV,
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati boshlig'i**



Askar uyiga qaytdi

HAYOT MAKTABIDA TOBLANGAN YOSHLAR

Shimoli-g'arbiy harbiy okrugga qarashli Nukus garnizonidagi harbiy qismalarning birida yigitlik burchini o'tab, rezervga bo'shatilgan muddatli harbiy xizmatchilar tantana bilan uylariga kuzatildi.



Bir yil mobaynida mashaqqat va sinovlarda toblangan elimizning zabardast o'g'londari uylariga yorug' yuz bilan qaytish arafasida harbiy okrug qo'shinalri qo'mondoni polkovnik Raxmatullo Raxmonov bilan uchrashib, suhbat qildilar.

Nukus garnizoni ma'naviyat va ma'rifat markazining tantanalar zalida samimi suhbat tarzida o'tgan uchrashuvda qo'mondon bir yil muddat ichida ma'nan va jismonan ulg'aygan yoshlarga kelajagi uchun kerak bo'ladigan pand-u nasihatlar berib, Vatan himoyachisi bo'lish kabi mas'uliyatlari vazifa hammaga ham nasib etavermasligini ta'kidladi.

"Hayot maktabi"da toblangan yoshlar bilan qo'mondonning suhbati samimi ruhda, erkin muloqot

va yuqori kayfiyatda bo'lib o'tdi. Harbiy hayot yo'li boy tajribadan iborat bo'lgan qo'mondonning nutqi iibrat maktabini o'tagan yoshlar uchun kelajakda komil inson bo'lib mamlakatimiz taraqqiyotiga o'z ulushini qo'shishga chorladi. Kasb-hunar o'rganishga, qaysi sohada bo'imasin, o'z ishining mohir ustasi darajasigacha ko'tarilishga ruhlantirdi. Yurtimiz obodligi, kelajagi uchun mas'uliyat bilan yondashishga, buguni va ertasi uchun jonkuyar, fidoyi bo'lishga undadi. Xalq va davlat manfaatlari yo'lida g'ayrat qilishga, o'qib izlanishlariga, taraqqiyotimizga hissa qo'shishlariga, yuksak marralarni zabit etishlariga ishonch bildirildi.

Suhbat davomida qo'mondon namunali xizmati, komandirlar tomonidan

qo'yilgan vazifalarni bajarishdagi mas'uliyati, yurtimizning eng olis bo'lgan shimoli-g'arbiy hududlarini himoya qilish yo'lida yuksak jangovar shayligi uchun askarlarga o'zining minnatdorligini izhor etdi. Qo'shinlarda olib borilgan jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik

yil kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni davom ettirishga istak bildirganlar soni 106 nafarga yetdi. Bu ham bo'lsa, yoshlar orasida harbiy kasb nufuzi ortib borayotganidan, sharaflı sohaga qiziqish yuksalayotganidan dalolat beradi.

mashg'ulotlarda, shuningdek sport va madaniy tadbirlarda faol ishtirok etgani uchun ularga harbiy okrug nomidan rahmat aytdi. Bugun Yangi O'zbekistonni barpo etayotgan mehnatkash xalqimiz, Prezidentimizga yelkadosh bo'lisch, mamlakatimiz farovonligi yo'lida xizmat qilish eng oliy sharaf ekanini uqtirdi. Vatanga qasamyodiga sodiq qolish, doim yurt taqdiri uchun yonib yashash kerakligini eslatdi.

Tantana davomida 400 nafarga yaqin muddatli harbiy xizmatchiga oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda qo'shimcha ball beradigan harbiy qism qo'mondonligining imtiyozli tavsiyanomalari topshirildi. O'tgan yilgi ko'rsatkichda jami 45 nafar yigit armiya saflarida xizmatni davom ettirish istagini bildirgan bo'lsa, bu

Tadborda ishtiroy etgan davlat va jamoat tashkilotlari vakillari armiya saflarini tark etayotgan yoshlar orqali ularning ota-onalariga o'z minnatdorligini bildirib, ularning yorug' yuz bilan ugya qaytishiga tilakdosh bo'ldi. Kelgusi hayotiga pand-u nasihat berib, yurt taqdiri uchun fidoyi bo'lishiga chorladi.

Nukus garnizoni harbiy orkestri hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligining san'atkorlari tomonidan taqdirmi etilgan konsert dasturi barchaga xush kayfiyat ulariga

Shundan so'ng yoshlar "O'zbekiston temiryo'llari" AJ tomonidan taqdim etilgan maxsus harbiy eshelon bilan harbiy orkestr sadolari ostida uylariga jo'nab ketdi.

Podpolkovnik T. NARZIYEV

Kutib olish

VATAN HIMOYASI – MUQADDAS BURCH

Vatan oldidagi muqaddas burchni bajarib, uylariga yorug' yuz bilan qaytayotgan, Andijon, Namangan, Surxondaryo, Navoiy, Buxoro viloyatlarida muddatli harbiy xizmatni o'tab, zaxiraga bo'shatilgan qoraqalpog'istonlik yoshlari "Nukus" temiryo'l vokzalida tantana bilan kutib olindi.



Mardlar safini tark etgan yigitlarni Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinalri qo'mondonligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi mudofaa ishlari boshqarmasi, Qurolli Kuchlar faxriylari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari hamda ota-onalar qarshi oldi.

Egnilariga harbiy libosi yarashgan norg'ul o'g'londar vagonlardan mardona chiqar ekan, ularni kutib olayotganlar bir yil oldin bu o'spirinlar bugun ancha ulg'ayib, kuch quvvatga to'lganini e'tirof etdi. O'z ona yurtining tinchligi, xalqining osoyishtaligini himoya qilish haqiqiy mardlarning ishi ekani ta'kidlandi.

Nukus garnizoni harbiy orkestri ijrosidagi harbiycha kuy va navolar endigina xizmatdan qaytayotgan yigitlar xayoliga armiya saflarida o'tgan quvonchli kunlarni, hayotga toblagan mashaqqatlari mashg'ulotlarni, birga yelkama-yelka safda turgan

qo'sha oladigan inson bo'lishiga harakat qilishadi. Buning uchun yurtimizda barcha sharoit va imkoniyatlar yetarli.

**Alijon BOYMURATOV,
Qoraqalpoq davlat universiteti
4-bosqich talabasi**

O'tmish sadosi



1937-1938-yillardagi katta qirg'in Lenin boshlab bergan, keyin Stalin izchil davom ettirgan qatag'on siyosatining avj nuqtasidir. Tarixchilarning bir qismi Sovet davlatining bu g'ayriinsoniy siyosatini hokimiyat uchun kurash natijasi, ikkinchi qismi esa boshlanajak ikkinchi jahon urushi arafasidagi tarixiy zarurat, deb hisoblaydilar. Bundan bo'lak fikr va qarashlar ham yo'q emas. Ammo mamlakat xalqiga qarshi qaratilgan bu qirg'inning kelib chiqish sabablari qanday bo'lmisin, mohiyatiga ko'ra, Sovet davlatining o'z xalqiga nisbatan amalga oshirgan qirg'inini genotsididir. SSSR parchalanib, uning xarobalari o'rnida mustaqil respublikalar qad ko'targanida, Sovet davlatining butun umri davomida milliy respublikalarga nisbatan mustamlakachilik siyosatini olib borgani ilk bor aytila boshladi. Yillar o'tishi bilan bu fikr-qarash haqiqat ekaniga, hatto sotsialistik tuzum maddohlari ham iqror bo'ldilar.

KAMINA Sovet davlatining maxfiy arxivlarida ishlagan kezlarimda nazarimga bir dahshatl hujjat tushib qolgan. Bu hujjat qaraganda, 1937-yilda O'zbekiston kompartiyasining birinchi kotibi Akmal Ikromov qamoqqa olinib, uning o'rniqa Usmon Yusupov saylanishi bilanoq respublika NKVDsida yangi kotibning har bir qadamidan ogoh qilib turuvchi guruh tuzilgan. Bu guruh oldiga qo'yilgan vazifa kelajakda sarkotibning qamalishiga asos bo'luvchi ma'lumotlarni izchil to'plab borish edi.

Sovet davlati OGPU-GPU-NKVD yordamida milliy rahbarlarga qarshi shunday operatsiyalarni tayyorlabgina qolmay, boshqa sinalgan usullardan ham barakali foydalanim keldi. Shunday usullardan biri respublikaning ikki rahbari - Akmal Ikromov bilan Fayzulla Xo'jayev va ularning tarafdarlari o'rtaida nizo olovini yoqish, ikkinchisi esa "tanqid - kelajak mevasi" degan niqb ostida matbuot va yig'ilishlarda milliy rahbarlarni tanqid va badnom qiluvchi chiqishlarni tashkil etish edi.

O'SHA YILLARDA siyosiy sahnaga chiqqan va O'zbekiston Respublikasiga rahbarlik qila boshlagan Akmal Ikromov ham, Fayzulla Xo'jayev ham egallagan lavozimlariga har tomonlama munosib, chuqur bilimli, davlat miqyosida fikrlovchi shaxslar edi. Ular amaliy ishlari bilan qisqa muddatda respublika aholisi o'rtaida katta hurmat va e'tibor qozongan. Bu shaxslar bilan 20-yillarda oxiri 30-yillar boshida uchrashish, suhbatlashish va hatto Moskvada o'z uyida, Boris Pasternak singari shoirlar davrasida qabul qilish sharafiga muyassar bo'lgan Galina Serebryakova ularning siyosat va davlat arboblari hamda tom ma'nodagi ziyojolar sifatida samimiy hurmat qilgan.

Uning Fayzulla Xo'jayev to'g'risidagi xotiralarida bunday voqeа hikoya qilinadi:

U (Fayzulla Xo'jayev - N. K.) bizning xonardonimizda bo'lganida onam va do'stlarim tufayli hayotimizni bezagan musiqani tinglashni sevardi. Bir kuni Xo'jayev Ikromov bilan kelib qoldi. Ular biznikida turmush o'rtog'inning gimnaziyadoshi Boris Pasternak bilan tanishi. Biznikida tez-tez mehmon bo'lib turuvchi Pasternak o'sha oqshomda "Leytenant Shmidt" dostonini o'qidi. Biz bu asarni nafas olmay tinglab, juda ham manzur bo'lganini aytdik. Pasternak o'qishni tugatguniga qadar Xo'jayev uning yonida tik turib tingladi. U rus she'riyatining bilimdoni ekan, goh Blokdan, goh Bryusovdan misollar keltirib, Pasternak bilan uzoq suhbatlashdi..."

RUS ADIBASINING bu kichik xotirasiz bizda Fayzulla Xo'jayev o'z davrining yirik davlat arboblardangina emas, balki yuksak madaniyati namoyandalaridan biri bo'lgani haqida ham yorqin tasavvur uyg'otadi. U shunday shaxs bo'lgani sababli SSSR Xalq Komissarları Sovetining 1924-1930 yillardagi raisi A. Rikov, "Pravda" va "Izvestiya" gazetalari muharriri N. Buxarin singari mashhur davlat va jamoat arboblari bilan yaqin munosabatda bo'lgan. Lekin Sovet davlati NKVD orqali, VKP(b) MKning Siyosiy byurosi esa VKP(b) MKning O'rta Osiyo byurosi orqali Fayzulla Xo'jayev va Akmal Ikromovni jamoatchilik oldida obro'sizlantiruvchi makkorona ishlarni muntazam ravishda amalga oshirib bordi.

Raqiblar F. Xo'jayevga qarshi kurashda uning jadidchilik muhitini va savdogar oilasidan yetishib chiqqani faktini keyin ham o'z maqsadlari yo'lida talqin qilib keldi. Ular nazarida savdogar oilasi va jadidlar muhitidan chiqqan kishining hukumat rahbari bo'lib xizmat qilishi mumkin emas edi. Shuning uchun ham Majid Hasaniy va Islom Usmonovlar "Oydin kunlar armoni" risolasida to'g'ri yozganlaridek, F. Xo'jayev qatnashgan Andijon, Samarcand, Surxondaryo

va Qashqadaryo viloyati partiya konferensiylarida uning sha'niga dog' tushiruvchi ig'vo va bo'htonlar tarqatilgan.

1925-YIL NOYABR oyining so'nggi kunlarda respublika kommunistlarining 2-syezdi bo'lib o'tadi. Syezd arafasida yuqori lavozimlarda xizmat qilgan 18 kishi o'z vazifalaridan voz kechganlari haqida jamoaviy ariza beradi. Bu favqulodda hodisaning sababi xususiy mulkni yo'qotish hisobiga yer-suv islohotining o'tkazilishi, eski rahbarlarga noto'g'ri munosabatda bo'lish va kadrlarni kelib chiqishiga qarab yuqori lavozimlarga qo'yish edi. F. Xo'jayev "18 lar guruhi"ning bu pozitsiyasini to'g'ri hisoblagani uchun ularga qarshi biror keskin chora ko'rmagan. Bu hol keyinchalik unga qarshi rasmiy hujumning boshlanishiga sabab bo'lgan.

1929-yilda Qosimovchilar ustidan o'tkazilgan sud jarayoni O'zbekistonda Katta qirg'inning fojiali keng ko'lamda o'tishiga sabab bo'ldi. Shu sud jarayonida GPU ayg'oqchisi Obid Saidovning xoinona so'zga chiqishi, soddan keyin esa shubhali o'limi 1929-1930-yillarda Narkompros xodimlari va "Milliy ittihod" tashkiloti a'zolarining ommaviy ravishda qamoqqa olinishiga bahona bo'ldi.

AKMAL IKROMOV ham, Fayzulla Xo'jayev ham o'zbek ziyoralarining qatag'on etilgan shu ikki guruhiga ruhan yaqin edi. Shuning uchun ular boshi uzra ham qora quzg'unlar aylana boshladи. 1932-yilda bo'lib o'tgan Toshkent shahri partiya konferensiyasida VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi kotibi Ya. Baumanning F. Xo'jayev faoliyatidagi g'oyaviy xatolar va millatchilik ko'rinishlarini tanqid qilib chiqishi Moskvaning O'zSSR Xalq Komissarları Soveti raisiga bo'lgan munosabati keskin o'zgarganining belgisi edi.

Afsuski, shunday murakkabishib borayotgan siyosiy sharoitda Ibodulla Xo'jayev maishiy buzuqligi uchun partiyadan o'chirilib, NKVD tergovchilariga "yem bo'ladi". Ular - deb yozadi "Oydin kunlar armoni" risolasi mualliflari, - I. Xo'jayevni ustma-ust so'roq qilib, asl maqsadlariga erishmoqchi - F. Xo'jayevni ilintirmoqchi edi. Ibodullani tunda hibsga olib, tonggacha so'roq usullarini qo'llab tergashadi. Tergovchilar undan akasiga qarshi ko'rsatma berishni talab qiladi. Oktabr bayrami munosabati bilan unga javob berishib, keyinroq yana so'roqni davom ettirishlarini anglatishadi. Ibodulla akasining uyiga kelib, u NKVD boshlig'i bilan chiqib ketganini biladi-yu, uni ham qamoqqa olishibdi-da, degan o'yga borib, o'zini otib qo'yadi".

BU MUDHISH VOQEА 1935-yil 7-noyabrdi ro'y beradi. Raqiblar I. Xo'jayevning fojiali taqdiridan, hatto musulmon odati bo'yicha kechgan dafn marosimlaridan respublika rahbariga qarshi kurashda makkorona foydalanadi. Bu hol ularning Moskvada tayyorlangan ssenariy asosida harakat qilganlaridan shahodat beradi. 1937-yilning mart oyalaridan boshlab, ayrim o'zbek ziyoralarini hibsga oliga boshladi. 1937-yil bo'roni hali ko'tarilmagan, lekin keyinchalik ma'lum bo'lishicha, respublika NKVDsi qora ro'yxatidagi har bir baxtsiz kishini jouslik, aksilinqilobchilik va millatchilikda ayblovchi xuyfyanomalarini to'plab, katta qirg'inga tap-tayyor bo'lib turgan ekan.

Moskvalik jurnalislarning guvohlik berishlaricha, 1937-yil 2-iyulda Stalin 863/sh raqamli "aksilsho'roviv unsurlar to'g'risidagi direktivani Kaganovichiga aytib turgan va u "dohiy" og'zidan chiqqan quyidagi so'zlarni yozgan:

"Shu narsa ayon bo'ldiki, bir paytlar turli viloyatlardan Shimoldagi va Sibir dagi rayonlarga yuborilgan, surgun muddati o'tgariidan keyin esa o'z viloyatlariga qaytgan sobiq quloqlar va jinoyatchilarining katta qismi kolxozi va sovxozlarda bo'lganidek, transportda va sanoatning ayrim sohalarida ham turli-tuman aksilsho'roviv va diversion jinoyatchilarining bosh sababchilari bo'lmoqdalar. VKP(b) MK viloyat va o'lsa tashkilotlarining barcha sekretarlariha hamda NKVDning viloyat, o'lsa va respublikalardagi barcha vakillariga o'z yurtiga qaytg'an quloqlar va jinoyatchilarining eng g'arazgo'ylarini uchiklar orqali ma'muriy yo'l bilan darhol hibsga olib otib tashlanishi uchun barchasini

hisobga olishni, qolganlarni, ashaddiy bo'lмаган, ammo garazgo'y unsurlarni esa ro'yxatga olish va NKVDning ko'rsatmasi asosida rayonlarga yuborishni taklif qiladi. VKP(b) MK besh kunlik muhlatda uchliklar tarkibini, shuningdek otishga mo'ljallanganlar sonini, shu bilan birga surgun qilinuvchilar sonini MKGa taqdim etishni taklif qiladi.

MK sekretari I. Stalin.

MAZKUR DIREKTIVA shu kunning ertsasigayq barcha mahalliy hokimiyatlarga yetib borgan. Ayni paytda NKVD xuddi shunday topshiriqni 266-raqamli shifrogramma bilan barcha viloyat, o'lsa va respublikalardagi vakillariga yetkazgan.

Yejov imzosi bilan yuborilgan shifrogrammalarida bunday so'zlar ham bor edi:

"...Shu yilning 8-iyuliga birinchi va ikinchi kategoriyadagi shaxslar sonini mena telegraf bilan yuboring. Operatsiyaning boshlanish vaqt va uni olib borish tartibini qo'shimcha xabar qilaman".

BELGILANGAN VAQTDA

partiya tashkilotlari sekretarlari va NKVD mahalliy boshqarmalarining boshliqlaridan ro'yxatlar oqib kela boshladi. VKP(b) MK Maxsus sektori IV shifr bo'limi xodimlari asosiy ijrochining kimligini bilganlari uchun barcha shifrogrammalarni Jejov nomiga jo'natib turadilar. "Temir narkom" esa ro'yxatlarni nazardan o'tkazib va ularga dahshatlari hujjat tusini berib, Stalinga yetkazadi. Stalin Siyosiy byuroning Moskvadagi a'zolari huzurida ro'yxatlarni "ovoza qo'yib", minglab kishilar taqdirlarini hal qiladi.

Yejov 16-iyulda maxsus kengash o'tkazib, yig'ilganlarni operatsiyani o'tkazish reja va tartiblari bilan tanishtiradi, so'z orasida: "Agar operatsiya vaqtida yana ming kishi otib yuborilsa, buning xavotirlanadigan joyi yo'q", degan fikrni bildiradi. Chekistlardan birining hibsga olingen chollar taqdiri to'g'risidagi savoliga esa: "Agar oyog'ida tura olsa, otib tashlayvering", deb javob beradi.

31-IYUL KUNI tasdiqlangan 00447 raqamli maxfiy buyruqqa ko'ra, qatag'on 5-avgustda "barcha respublikalar, o'lkalar va viloyatlarda, O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston SSRlar"da boshlanishi lozim edi. Lekin O'zbekiston NKVDsi rahbarlari dog'da qolmasliklari uchun iyul oyining o'rta dayaroq qatag'on mashinasini ishga tushirib yuboradilar. 1937-yil 10-iyunda O'zbekiston kompartiyasining navbatdagi 7-syezdi o'z ishini boshlaydi. Bu syezdda Respublika Xalq Komissarları Sovetining raisi Fayzulla Xo'jayev taqdiri hal qilingan edi. Syezdning 17-iyun kuni bo'lib etgan yakunlovchi yig'ilishida F. Xo'jayev Markaziy Komitetning yangilangan tarkibiga ma'lum maqsadda kiritilmagan. Bu ham ozlik qilganidek, shu kuni uning sha'niga tuhmat va malomat toshlari otilgan. Rosti, hech kim buni kutmagandi. Ayniqsa, hukumat boshlig'ining kelib chiqishi, shaxsi xususida asossiz fikrlar bildirildi. Shuningdek, respublikada sanoatni rivojlantirish borasida yo'l qo'yilgan xatolar, qishloqni jamoalahtirish sohasidagi kamchiliklar, arab alifbosini bekor qilish borasidagi shoshma-shosharlik, kadrlar tanlashning nomutanosibligi, partiya va Stalin yo'lidan adashgan ayrim shaxslarning yuqori vazifalarni nohaq egallab turishi F. Xo'jayevga borib taqaldi. Qo'yilgan ayblar jiddiy va ularni daf'atan rad etish mushkul edi.

O'zini NKVDning "qora qo'ng'iz" kutayotganini sezgan F. Xo'jayevni yurak xurumi tutib, yotib qoladi.

F. Xo'jayev hayotining shu o'ta izzirobli kunlari qizi Viloyat Xo'jayevning otasi haqidagi xotiralarida bunday talqin qilingan:

"...1937-yilning yozida, - deb hikoya qilgan edi u adabiyotshunos Majid Hasanov bilan suhbati chog'ida, - O'zbekiston KP(b) VII syezda bo'lib o'tgan. Otam shu syezdadan yomon kayfiyatda qaytg'an edilar. Bilishimizcha, bu syezdda Farg'ona delegatsiyasining vakillari otanga ijtimoiy kelib chiqishi boy tabaqadan, deb ta'na toshini otgan. Otam O'zbekiston SSR Xalq Komissarları Sovetining raisi vazifasida ishlab turganiga qaramay, O'zbekiston KP(b) Markaziy Komiteti a'zoligiga saylammay qolganlar. O'sha kunlarda otamning kayfiyati juda yomon edi. Nimalar bo'layotganini tushunmay, hayron yurardi. Oradan bir oz vaqt o'tgach, otam Moskvaga borib, bo'lib o'tgan voqeani tushuntirish niyatida Stalin huzuriga kirmoqchi bo'lgan. Aytishlaricha, Stalin otamni qabul qilmagan. Bir hafstadtan keyin otamni NKVD xodimlari mehmonxonada hibsga olgan". Bu dahshatlari voqeasi 1937-yil 9-iyulda sodir bo'ladi. NKVD xodimlari Stalin bilan shaxsan uchrashish niyatida borgan F. Xo'jayevning qo'liga kishan bog'lab, "Natsional" mehmonxonasidan olib chiqib ketadi. "Shu mudhish voqeadan keyin, - davom etadi Viloyat Xo'jayeva, - men otamni qaytib ko'rmadim. Dahshatlari yalpi qirg'inning o'tkir tiliga ilk bor mening otam ro'baro' kelgan!"

SHU YERDA Viloyat Xo'jayevning xotiralarini bo'lish lozim ko'rinadi. Zamondoshlardan birining xotirashicha, F. Xo'jayevning onasi farzandining qamoqqa olingenini eshitishi bilan A. Ikromovning oldiga najot izlab borgan. O'zbekiston Markazkomi kotibi maxsus aloqa vositasi orqali Stalin bilan ulanib, F. Xo'jayevning nohaq qamalganini aytmoqchi bo'lgan. Lekin Stalin Ikromovning dastlabki so'zlarini eshitishi bilanoq go'shakni qo'yib qo'ygan va shundan keyin Ikromov bilan Stalin o'rta dagi telefon aloqasi batamom uzelgan.

Yana Viloyat Xo'jayevning xotirasi bilan tanishishda davom etaylik:

"Otam Moskvadagi "Natsional" mehmonxonasida hibsga olingenlaridan keyin sal o'tmay, uymizni tintuv qilib, onamni va meni ham "xalq dushmanining oila a'zolari, deb so'roq qila boshladilar. Olimizga g'am, alam, fojia soya tashladi. Onam bizga bildirmay tunni yum-yum yig'i bilan o'tkazardi. Iztirob, g'am-alamdan onamning ko'zlarini ich-ichiga cho'kib ketgan edi. Onaizorim ko'chaga ham chiqmay, doimo unsiz faryod chekardi..."

...Men yosh bo'lishimga qaramay, bir o'qimishli qarindoshimiz bilan birga Moskvaga borib, SSSRning Bosh prokuror Vishinskiy huzuriga otamning nohaq qamalgani to'g'risidagi ariza bilan kirdim. Haqiqat o'z o'rnini topar, degan umidda edim-da. Orzularim sarob bo'lib chiqdi. Mening ko'zimga niyoyatda badjahl, jallodnusxa bo'lib ko'ringan Bosh prokuror arizamga ko'z yogurtirib chiqdi-da, ko'zoynagini olib, o'ng qo'lini bigiz qilgan holda: "Bilasizmi, otangiz kim? U xalq dushmani! Xalq dushmaniga shafqat yo'q va hech qachon bo'lmaydi ham. Shikoyatga o'rin yo'q! Qaror qat'iy! Marhamat qilib, chiqib keting!" - dedi. Rangim quv o'chib, ustidandan sovuq suru quygandek bo'ldi. Dodlab yuborishimga sal qoldi. O'zimni zo'rg'a tutib oldim.

1937-YIL İYUN oyining boshlariда Kremlida Siyosiy byuro a'zolari ishtirokida Mudofaa harbiy komissarligi qoshidagi Harbiy sovetning kengaytirilgan yig'ilishi o'tkazilgan. Harbiy sovetning 2-iyunda bo'lib o'tgan yig'ilishida Stalin so'zga chiqib, qamoqqa olingen sarkardalarning ko'rsatmalariga suyangan holda

mamlakatda Sovet hokimiyatiga qarshi harbiy-siyosiy fitnaning yetilganini ma'lum qiladi. U mazkur fitnaning rahbarlari sifatida Troskiy, Rikov, Buxarin singari davlat arboblari va sarkardalarning nomlarini tilga oladi. Sershubha "dohiy"ning boshida shakllanib ulgurgan "fitna"ning ipi bir aylanib, Troskiy, Rikov va Buxarinlarga yaqin bo'lgan shaxslarni ham shu "fitna"ga bog'lashi hech gap emas edi. Bu "fitna"ga yanada keng ko'lam berish uchun "fitnachi"lar davrasiga F. Xo'jayevga o'xshash milliy respublikalarning rahbarlarini ham tortish zarur bo'lib qoldi.

1937-yilning sentabrida O'zkompartiya MKning II plenumi bo'lib o'tdi. Plenumda, bir tomondan, VKP(b) MK kotibi A. Andreyevning ishtirok etishi qatnashchilarga g'ayritabii tuyulgan bo'lsa, anchadan beri ko'rinnagan, Moskvaga chaqirib olinib, F. Xo'jayev bilan bir necha marta yuzlashtirilgan A. Ikromovning plenum hay'atida horigan, ezilgan holda hozir bo'lishi ularda, bir tomondan, mavnuniyat, ikinchi tomondan, qandaydir shubha va hadik tuyg'ularini uyg'otdi.

Syezd boshlanishi bilan A. Andreyev minbarga ko'tarilib, Stalin bilan Molotovning O'zbekiston kommunistlariga yo'llagan xatini o'qib beradi.

Xatda bunday so'zlar yozilgan edi:

"O'zbekiston Kommunistik (bolsheviklar) partiyasi MK plenumiga:

a) qamoqqa olingen Buxarin, Xo'jayev, Razumov, Rumyantsev, Polonskiy, Xo'janov, Antonov, Risqulovlarning ko'rsatmalar;

b) o'rtoq Ikromovning Buxarin, F. Xo'jayev, Antipov, Razumov, Rumyantsev bilan yuzlashtirish bayoni va;

v) o'rtoq Ikromovning arizasi bilan tanishib chiqib, VKP(b) Markaziy Komiteti shuni aniqladi;

o'rtoq Ikromov burjua millatchilar, o'zbek xalqining dushmanlari (F. Xo'jayev, Xo'janov, Boltaboyev, Tojiyev, Karimov va boshqalar)ga nisbatan siyosiy ko'rlik qilibina qolmay, ba'zan ularga homiy sifatida ham ish tutdi...

...VKP(b) Markaziy Komiteti qaror qiladi:

1) O'zbekiston KP(b) Markaziy Komiteti plenumiga o'rtoq Ikromov haqidagi masalani muhokama qilib, o'z fikrini VKP(b) Markaziy Komitetiga bildirish taklif etilsin;

2) Mazkur xat bilan bog'liq masalalarni tushuntirish uchun VKP(b) Markaziy Komiteti Siyosiy byurosi a'zosini o'rtoq A. Andreyev O'zbekistonga yuborilsin.

I. Stalin,

V. Molotov.

1937-yil 10-sentabr Moskva shahri.

ANDREYEV BU XATNI o'qib

tugatganida zalda bomba portlagandek bo'ldi. Dahshatga tushgan plenum qatnashchilari o'z taqdirlaridan xavotirga tushdi. Shundan so'ng bir necha shahar va tuman partiya komitetlarining kotiblari so'zga chiqib, joylarda ro'y berayotgan kamchiliklar xususida qimtinib so'zladи. So'z navbatli O'zbekiston ichki ishlar xalq komissari Zagvozdining beriladi. U qamoqqa olingen Akbar Islomov, Rustam Islomov va Abdulhay Tojiyevning A. Ikromovga qarshi bergan ko'rsatmalarini o'qib beradi. Shu kuni, ya'ni 10-sentabr kuni kechasi O'zbekiston kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi Akmal Ikromov Toshkent shahri Gogol ko'chasidagi 71-uyidagi kishanlangan holda olib ketiladi.

F. Xo'jayev bilan A. Ikromov xizmat yuzasidan yuzlab kishilar bilan aloqada bo'lgan. Ularning qarindosh-urug'lari qirib tashlandi, ular bilan Xalq Komissarları Soveti va Markazkomda, viloyat, shahar va tumanlardagi barcha korxonalarda hamkorlik qilgan minglab kishilar qatag'on qilindilar. Bu ikki milliy rahbarning hibsga olinishi bilan O'zbekistonda Katta qirg'inning to'g'oni ochilib ketdi.

"F. Xo'jayevning dumi", "A. Ikromovning dumi" yoki "F. Xo'jayevning qarindosh", "A. Ikromovning qarindosh" degan so'zlar "xalq dushmani" degan dahshatlari ifoda bilan egizak edi.

FAYZULLA XO'JAYEV sud

jarayonidagi tahqirlashlariga mardona chidadi. So'nggi so'zida ham belgilangan fikriy reglament doirasida so'zlashga intildi, **Uning so'nggi so'zlar bunday bo'ldi:**

"Men yashashni istayman. Men tubanlashganimni butun teranligi bilan tushunganim, qilgan jinoyatlarimning butun og'irligini tushunganim uchun yashashni istayman. Men ehtimol, qolgan umrim bilan menga tirkalgan jinoyatlar va katta ayblarning qandaydir kichik bir qismidan xalos bo'lishim uchun tirik qoldirishlarini so'rayman".

Odatda, tarixchilar o'z asarlarida F. Xo'jayevning stalincha sud jarayonidagi shu so'nggi so'zlarini keltiradi. Ammo bu so'zlardan oldin u shunday so'zlar aytganki, ulardan uning o'ziga o'zi tuhmat qilishga majbur bo'lgani shundoqqina anglashilib turadi:

"Men shaxsan hech qachon na ig'vagar, na josus, na qotil bo'lamanman. Ammo men qay bir tarzda bo'lsa-da, shu blokning qatnashchisi bo'lib qolgan ekanman, buning sariq chaqalik ahamiyati yo'q, demak, men uning barcha ishlari bo'yicha javob berishim shart".

F. Xo'jayev bu so'zlar bilan Stalining yuziga qarab, "Men hech qachon xalq dushmani bo'lgan emasman!" demoqda; "modomiki, u yoki bu sabab mazkur blok qatnashchilari orasiga tushib qolgan ekanman", degan so'zlar tagida o'ziga qo'yilgan barcha ayblarni rad etuvchi ulug' kuch yotadi.

Bu so'zlardan bir oz yuqoriqoqda respublikaning sobiq rahbari bunday so'zlarni aytgan:

"O'zbekistonni inqilobga qadar bilgan kishilar, bundan 10 yil ilgari shu yerda bo'lgan va so'nggi yillarda uni ko'rgan kishilar bu mamlakatning chehrasini taniy olmadi. Nima uchun? Chunki u yerdagi hamma narsa batamom o'zgarib ketgan. Iqtisod, madaniyatning behad darajada yuksalishi, keng omma siyosiy faolligining mislisiz darajada o'sishi - bularning hammasiga nisbatan qisqa muddatda - 10-20 yil ichida faqat leninchalista Stalining milliy siyosat tufayligina erishildi".

DOR OSTIDA TURGAN F. Xo'jayev bu so'zlarini ham bejiz aytmasan. U so'nggi 10-20 yil ichida respublikada ro'y bergan yuksalish o'zi va A. Ikromovning "xalq dushmani" emas, balki xalqning tinib-tinchimas dono rahbarlari bo'lganiga shama qilmoqda. Stalin buni yaxshi tushungan. Bugun buni biz ham tushunib turibmiz.

Lekin sud F. Xo'jayev va uning taqdirdoshlarini oliy jazoga hukm qildi. Hukm 1938-yil 15-martda Moskvadagi NKVDga qarashli sobiq "Kommunarka" sovxozi hududida ijro etilib, mahbuslar shu yerga dafn qilindi.

Yuqorida aytganimizdek, F. Xo'jayev va A. Ikromov "xalq dushmanlari" sifatida ayblanganlaridan so'ng ularning barcha yaqin qarindosh-urug'lari qirib tashlandi, ular bilan Xalq Komissarları Soveti va Markazkomda, viloyat, shahar va tumanlardagi barcha korxonalarda hamkorlik qilgan minglab kishilar qatag'on qilindilar. Bu ikki milliy rahbarning hibsga olinishi bilan O'zbekistonda Katta qirg'inning to'g'oni ochilib ketdi.



MARV JANGI

YASHILBOSH VA QIZILBOSHLAR TO'QNASHUVI

Turonda Shayboniyalar hokimiyat tepasiga kelgan davrdan boshlab butun 16-yuzyillik mobaynida faol tashqi siyosat olib borishga harakat qildilar. Hukmronliklarining dastlabki davridayoq ular bilan oldinma-keyin Eronda Safaviylar, Hindistonda Boburiylar hukmronligining o'rnatilishi natijasida mintaqada uch siyosiy kuchning manfaatlari to'qnashdi. Manfaatlар kesishgan asosiy nuqta siyosiy, harbiy va iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan Xuroson edi.



qarshi o'laroq yashil salsa o'ragani uchun unga "Yashilbosh" laqabi berilgan.

Shayboniyalar ham, Safaviylar ham musulmon sulolalar bo'lsa-da, Shayboniyalar islam dinining sunniylik, Safaviylar esa shialik oqimiga e'tiqod qilgan. Bu esa ular o'rtasida faqat hudud uchun kurash ketmay, diniy ziddiyatlar vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Butun 16-yuzyillik davomida Xurosonni nazorat qilishda Muhammadxon Shayboniy, Ubaydullaxon va Abdullaxon II davrida Shayboniyalar ustun turgan. Qolgan paytlarda Safaviylar tashabbusni qo'lga olishga erishgan. Xuroson uchun kurashda Safaviylar yo'liga g'ov bo'ladigan bir to'siq bor edi. U ham bo'lsa, ularning shimoli-g'arbidagi qo'shnilarini va ashaddiy raqiblari Usmonlilar sultanati hisoblangan. Safaviylarning ikki tomondan bosimga uchrashidan Shayboniyalar ustalik bilan foydalaniib kelgan.

MUHAMMADXON SHAYBONIY 1507-yili Xurosonning katta qismini egallagach, davlatining chegaralari Safaviy davlati chegaralariga tutashdi. Bu davlatlarning chegaralari tutashgach, ular o'rtasida siyosiy aloqalar ham boshlanib, bir-birlariga

Shayboniyarning Hirot va Balxga egalik qilish borasidagi harakatlari ham bu kurashning markazida turdi. Bu masalani hal qilishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirishda Shayboniyalar va safaviylar faollik ko'rsatdi. Tarixiy manbalarda Shayboniyalar "Yashilbosh", Safaviylar esa "Qizilboshlar" deb atalgan. Chunki Shayx Haydar davridan boshlab safaviy shayxlarining muridlari boshlariga 12 qizil yo'llik matodan salsa o'rabi yurgan. Bundan maqsad Shayx Haydar muridlari orasidagi birlikni yanada kuchaytirish bo'lgan. Muhammadxon Shayboniy esa qizilboshlilarga

muktublar jo'natdi. Birinchi bo'lib Muhammadxon Shayboniy maktub yo'lladi. Ammo bu maktub saqlanib qolmagan. Maktub mazmunini esa Shoh Ismoilning javob maktubi orqali bilishimiz mumkin. Bu maktubning asosiy maqsadi Muhammadxon Shayboniyning Xuroson yurishidagi muvaffaqiyatlarini va Shoh Ismoil saroyidan Badiuzzamon mirzoning panoh topganidan noroziligini bildirish maqsadida yuborgan. Shoh Ismoil Safaviy 1508-yilning 30-iyulida bu maktubga javob yuboradi. Muhammadxon Shayboniy ilk maktubida qo'lga kiritgan yerlari ajdodlaridan unga o'tganini, shu sababli maqsadi bu yerlarda farovonlik vaadolatni ta'minlash ekanini aytadi. Bu maktubi orqali Muhammadxon Shayboniy ochiqchasiga Xuroson uning mulki ekanini bildirib, Ismoil Safaviyning bu o'lkaga bo'lgan da'volaridan voz kechishini talab qiladi. Bundan tashqari, Muhammadxon Shayboniy o'zi hukmronlik qilayotgan hududlarda masjid, madrasa va boshqa imoratlarni ta'mirlash maqsadida Shoh Ismoildan mohir muhandis va ustalarni yuborishni va haj ziyyoratini qulaylashtirish uchun Makka va Madinaga boradigan yo'llarni tartibga keltirishni ham talab qiladi.

Shoh Ismoil javob maktubida, avvalo, xonning maktubini qabul qilgani va xonning istaklaridan voqif bo'lganini ma'lum qilish bilan boshlab, ikki o'lka orasida kelib-ketayotgan yo'lovchilardan Muhammadxon Shayboniyning unga nisbatan dushmanona kayfiyatda ekanini eshitganini yozadi. Bu ma'lumotlarga ishonmasa-da, xonga o'tmishdagi do'stliklarini eslatib, ayni bir Allohga va Payg'ambarga e'tiqod qilishlarini qo'shimcha qiladi.

Shohning bunday bosiqlik bilan javob maktubini yozishdan maqsadi ayni damda Muhammadxon Shayboniy bilan urushga kirishni istamayotganida edi. Chunki bu vaqtida Shoh Ismoil Eron hududini to'liq birlashtirish va ko'chmanchi turkman qabilalarini o'ziga bo'yundirish bilan band edi.

SHOH ISMOIL maktubi davomida maqsadi islam dini dushmanlariga qarshi kurashish ekanini ta'kidlab, bu kurashda Muhammadxon Shayboniyni o'ziga ittifoqchi bo'lishini taklif qiladi. Ammo maktubda Shoh Ismoil shialikka bo'lgan e'tiqodini ham qayd etadi. **U Ali va uning oilasiga bo'lgan muhabbatini ushbu jum'lalarda keltiradi:**

Sharqdan g'arbga qadar
har yerda imomlar bo'lsa,
Biz uchun Ali va oilasi yetarlidir.
Bu maktubda yana Ismoil Safaviy yo'lovchi va savdogarlarning o'zbeklarning dushmanona harakatlar qilayotgani haqidagi fitna va fasodlarga ishonmaganini va tez orada bu fitnachilarni yo'q qilib, eski do'stlik rishtalarini davom ettirishini ham ta'kidlaydi.

Muhammadxon Shayboniy Hirotni egallaganidan so'ng Xuroson hududlarini o'ziga bo'yundirish uchun kurashni davom

ettirishi o'rtadagi munosabatlarni keskinlashtiradi. Ayniqsa, o'zbeklar tomonidan Safaviylar tasarruf doirasida bo'lgan Kirmon talon-toroj qilingach, Ismoil Safaviy Xuroson uchun qurolli kurashga kirishadi. Xon va shoh o'rtasidagi bir-birlariga maktub yuborish ham to'xtamaydi. Ammo maktublar mazmuni o'zgarib, endi bir-birlariga tahdid va po'pisa ko'rinishiga o'tadi. **Muhammadxon Shayboniy Ismoil Safaviya quyidagi baytni o'z ichiga olgan maktub yuboradi:**

Bizning xarob Iroq mulkiga
tamohimiz yo'qdur,

Makka va Madinani
qo'lga olgandan so'ng
bir ahamiyati yo'qdur.

Ammo Muhammadxon
Shayboniyning bu maktubi ham
bizgacha yetib kelmagan.

Bu maktubga javoban

**Shoh Ismoil Muhammadxon
Shayboniya bu baytli maktubni
yuboradi:**

Har kim Alining quli bo'lmasa,
Yuz marta Makka va Madinani
qo'lga kirtsat ham
ahamiyati yo'qdur.

Ismoil Safaviy bu maktubini elchisi Qozi Ziyovuddin Nurulloh orqali yuboradi. Shoh Ismoil ushbu maktubida Mashhaddagi Imom Rizoning maqbarasini ziyyorat qilish istagini bildirib, bunga hech kim monelik qilolmasligini urg'ulaydi.

Ikki o'rtada yozilgan maktublarning oxirgisini Muhammadxon Shayboniy yozadi. Bu maktub 1510-yilda yozilgan bo'lib, maktubda Ismoil Safaviyini Eron hududlarining dorug'asi deb ataydi. Shu sababli Shoh Ismoil Muhammadxon Shayboniyga qarshi harakatlar qilmasligini va sunniylik mazhabini qabul qilishini ochiqchasiga talab qiladi. Hukmronlik otadan o'g'ilga meros ekanini aytib, Turkiston, Xuroson va hatto Eron unga ajdodlaridan meros qolganini va bu hududlarga Muhammadxon Shayboniy haqli ekanini ta'kidlaydi. Agar Shoh Ismoil Muhammadxon Shayboniyning istaklarini bajo keltirmasa, jiyani Ubaydulla Bahodirxonni amir va askarlar bilan Safaviylar yurtiga jo'natishini va bu davlatni tugatishini, agar Ubaydulla Bahodirxon muvaffaqiyatsizlikka uchrasha, o'g'li Temur Sultonni, agar u ham buni uddalay olmasa, shaxsan o'zi Safaviylarni yo'q qilishini ma'lum qiladi. Muhammadxon Shayboniy bu maktubni yetkazish uchun Kamoliddin Muhammadxon Obivardiyni tayinlaydi. Bu elchi orqali Muhammadxon Shayboniy Safaviy saroyidan panoh topgan temuriy sultonlarni ham unga topshirishini talab qiladi.

1510-YILNING KUZIDA

Shoh Ismoil katta qo'shin bilan Xuroson yurishiga otlandi. Ismoil Safaviy dastlab Tabrizdan Rayga keldi va bu yerdan Shayboniyalar qo'l ostida bo'lgan Damg'on viloyatiga yo'naldi. Damg'on hokimi bo'lgan Muhammadxon Shayboniyning kuyovi Ahmad Sulton Ismoil Safaviyning katta qo'shin bilan kelayotgani xabarini eshitgach, qal'anı tark etib, Hirota -

Muhammadxon Shayboniy huzuriga ketadi. Bu vaqtida Muhammadxon Shayboniy isyonchi hazoralarni o'ziga bo'yusundirish maqsadida ularga qarshi yurish qilgan va ulardan mag'lubiyatga uchrab Hirotda qo'nim topgan edi. Bundan tashqari, qish fasli yaqinlashgani sababli ham qo'l ostidagi qo'shinni tarqatib yuborgan va Hirotda kam sonli qo'shin qolgan edi. Kuyovi Ahmad Sulton Shoh Ismoilning katta qo'shin bilan kelayotgani haqidagi xabarni aytgach, Turkistonga xabarchilar yuborib, Temur Sulton va Ubaydulla Bahodirxonni o'z qo'shinlari bilan Marvga kelishini buyuradi va o'zi ham Marvga otlanadi.

Muhammadxon Shayboniy Marvga kelgach, qal'a devorlari va burchlarini ta'mirlashni buyurdi. Shoh Ismoil Muhammadxon Shayboniying Hirotdan Marvga ketganini eshitgach, Mashhaddan Saraxs orqali Marvga kelib, Marvni qamal qilishni boshlaydi. Ikki o'rtadagi dastlabki jang Marv yaqinidagi Tohirebod qishlog'ida ro'y beradi. Shoh Ismoil Dono Muhammad boshchiligidagi qizilbosh qo'shining manqiloy (*qo'shining bosh qismida joylashgan alohida harbiy bo'linma*)ni yuboradi. Muhammadxon Shayboniy ham qizilboshlarning manqiloy qismi yetib kelganini eshitgach, Jonvafobiy do'rmon va Qanbarbiyi o'zbek qo'shining bir qismiga bosh qilib, qizilboshlarga qarshi jo'natadi. Tohireboda bo'lган jangda qizilbosh sardori Dono Muhammad o'ldiriladi va dastlabki jangda o'zbeklarning qo'li baland keldi.

SHOH ISMOIL boshchiligidagi qizilbosh qo'shini qancha harakat qilmasin, Marv mustahkam qal'a bo'lgani uchun uni egallay olmaydi. Shoh Ismoil butun Turon hududidan Muhammadxon Shayboniyga yordam uchun Temur sulton, Ubaydullaxon, Ko'chkinchixon o'g'llari Abu Said sulton, Abdulla sulton, Abdulatif sultonlar bilan, Sevinchxo'ja sulton esa Baroqxon laqabli Navro'z Ahmad sulton va Keldi Muhammad sulton kabi o'g'llari bilan katta qo'shin to'plab kelayotgani xabarini oladi. Agar bir necha kun ichida Muhammadxon Shayboniyi mag'lub etmasa, boshqa bunday imkoniyat bo'lmasligini anglaydi. Shundan so'ng Ismoil Safaviy qo'shini yolg'ondan chekingandek ko'rsatib, Marvdan uch farsax uzoqlikdagi Mahmudiy qishlog'ida pistirmada kutib turadi. Muhammadxon Shayboniy amirlari bilan mashvarat o'tkazadi. Amirlardan Qambarbek va Jonvafo mirzo yana 2-3 kun kutish va Ubaydullaxon va Temur Sultonlar kelib qo'shilgach, shahardan chiqib Safaviylarga hujum qilishni maslahat beradi. Lekin bu maslahat Muhammadxon Shayboniyga ma'qul kelmaydi.

Muhammadxon Shayboniying Mo'g'ulxonim nomi bilan mashhur bo'lган xotini Oyishabegim esa Muhammadxon Shayboniy Ismoil Safaviyni jangga chorlagani, lekin Ismoil Safaviy jang qilish uchun Marvga kelganida qo'rqlardek qal'aga yashiringani, agar jang

qilmasa, Muhammadxon Shayboniy qo'rqlar sifatida nom qoldirishini ta'kidlaydi. Muhammadxon Shayboniy qal'ada bir kun kutgach, ertasi kun qizilbosh qo'shini ta'qib qilishni boshlaydi va Siyahob anhoridan o'tgach, Shoh Ismoil qoldirgan 300 nafar qizilbosh askari anhorning ko'prigini buzib yubordi.

Mahmudiy qishlog'ida o'zbeklar va qizilboshlar yuzlashdi. Har ikki tarafдан surnay va karnay ovozlari ko'tarildi, burg'u va suron sadolari baland osmon cho'qqisidan o'tdi. Qizilboshlar uzun nayzalari bilan, o'zbeklar esa qonichar o'qlarni kamon ipiga qo'yib, jangga kirishdi. Qizilbosh qo'shini jangga shay holatda Muhammadxon Shayboniy va uning qo'shini kutib oldi va ikki o'ttada qattiq jang boshlanadi. Shoh Ismoil uch-to'rt ming otliq sara qo'rchilardan iborat soqchi qo'shini tuyalar qatoridan yasagan pistirmada yashirib qo'yib, o'zi esa lashkar qalbidan joy oldi. Muhammadxon Shayboniy qo'shini qanotlarini Jon Vafobiy va Qanbarbiy bilan mustahkamladi. O'zbeklar qo'shini kamon, nayza, qilich kabi qurollar bilan qurollangan bo'lsa, qizilbosh qo'shinda zambarak va to'fang (*miltiq*)lar ham bo'lgan.

SAFAVIYLAR o'zbeklar qo'shini saflarini buzishda va qo'shin ichida qo'rquv uyg'otishda zambaraklardan foydalangan. Qizilboshlar o'zbeklarning shijoat bilan jang qilayotganini ko'rib, yana hiyla yo'liga o'tdi. Qizilbosh qo'shini o'zini yengilgandek ko'rsatib, ortga chekinadi. O'zbeklar esa g'alaba qozonganiga ishonib, o'lja yig'ishga kirishadi. Shoh Ismoil esa o'zbeklarning o'lja yig'ish bilan band bo'lganini ko'rgach, tuyalar ortiga yashirgan otliq qo'shinlarini jangga kirkizadi. Natijada bu jangda Muhammadxon Shayboniy mag'lubiyatga uchrab, uning qo'shini tarqalib ketib, chekinishni boshlaydi. Qo'shining katta qismi jang davomida o'ldiriladi, bir qismi esa Mahmudiy anhorida cho'kib o'ladi. Muhammadxon Shayboniy ham o'lgan askarları jasadlari va otlarning ostida qolib halok bo'ladi.

Shoh Ismoil Hirotda shahrini qo'lg'a olgach, sunnii aholiga tazyiq kuchayib, aholini shialikka o'tkazish ishlari boshlandi. Kim shialikni qabul qilmasa, qattiq jazolandı. Hatto Hirotda shayxulislomi Sayiddin Ahmad ibn Qutbiddin Yahyo ibn Muhammadxon ibn Mas'ud at-Taftazoniy shialikni qabul qilmagani uchun Shoh Ismoil tomonidan qatl etildi. Sayiddin Ahmad Taftazoniy tafsir, hadis va fiqh ilmida davrining yagona shayxullohi bo'lib, Sulton Husayn Mirzo davrida Xurosonda o'ttiz yilga yaqin shayxulislomlik qilgan.

Abdullahjon USMONOV,
Tarix instituti
kichik ilmiy xodimi



Chegara qo'shinlarida

“

AVLODLAR VORISLIGINI

TA'MINLASH YO'LIDA



Ayni shu ma'noda Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy qism va bo'limmalarida avlodlar vorisligini ta'minlashga qaratilgan ko'plab ma'naviy tadbirlar, davra suhbatlari hamda uch avlod uchrashuvlari o'tkazib kelinmoqda. Xususan, Farg'onan shahrida joylashgan harbiy qislardan birining tashabbusi bilan Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'lim fakultetida tashkil etilgan ana shunday tadbirda ishtirok etgan Chegara qo'shinlari faxriylari yosh harbiylarga o'zlarining boy hayotiy tajribalari, Vatanimiz sarhadlarini qo'riqlashda ko'rsatgan shaxsiy namunalari haqida so'zlab berdi.

Suhbat davomida bugun davlatimiz tomonidan ertamiz egalariga qaratilayotgan yuksak e'tibor, ular uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar va berilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish zarurligi ta'kidlab o'tildi.

- Biz bugungi davomchilarimizga juda havas qilamiz. Qani, o'zingiz ayting-chi, davlat rahbari tomonidan yurt yoshlarini bir joyga yig'ib, ochiq muloqotlar o'tkazish, ularga ko'tarinki ruh bag'ishlab, yuksak parvozlar uchun qanot baxsh etish avvallari hech bo'lganmi? Hozirgi uchrashuv davomida ayni shu jihatlarga alohida to'xtalib o'tdik. Albatta, hamma sohalarda bo'lgani kabi harbiylikda ham ustozlar

boshlagan ishni shogirdlar davom ettirishi yaxshi ana'anaga aylangan. Ayni damda vorislarimizga ushbu an'analarga hamisha sadoqatli bo'lishlari kerakligini tayinladik, - deydi Chegara qo'shinlari faxriysi iste'fodagi polkovnik Anasxon Oripov.

Hayotiy hikoyalar va qiziqarli fikr-mulohazalarga boy tarzda kechgan uchrashuv davomida yosh harbiylar o'zlarini qiziqtirgan ko'plab savollarga javob oldi.

Faxriylar ishtirokidagi tadbirlardan yana biri Buxoro shahrida joylashgan Ibn Sino nomidagi viloyat kutubxonasida ham tashkil etilib, unda mazkur hududda o'z xizmat faoliyatini olib borayotgan sarhadlarimiz posbonlari, faxriylar va

Buxoro davlat universiteti talabalari ishtirok etdi.

Tadbirda so'z olganlar ishtirokchilarga Chegara qo'shinlarining shonli tarixi, bugungi kunda yurt posbonlari va ularning oila a'zolari uchun yaratilayotgan shart-sharoit va qulayliklar xususida so'zlab berdi.

Shu kuni "Men ham harbiy bo'laman" kitobining taqdimoti ham tashkil etildi. Harbiy qism qoshida faoliyati yo'lga qo'yilgan "Ostona" badiiy guruhi xonandalarining vatanparvarlik ruhida ijro etgan kuy-qo'shiqlari esa barchaga yanada ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Harbiy xizmatchilarining turmush o'rtoqlari bilan olib borilayotgan

ma'naviy tadbirlar doirasida boy hayotiy tajribaga ega, nuroniy onaxonlarimizning pand-nasihatlarini, o'gitlaridan keng foydalanib kelinmoqda.

Jumladan, Termiz shahridagi "Yosh chegarachilar" harbiy akademik litseyining faollar zalida "Farzand tarbiyasida ota-onaning o'rni" mavzusida davra suhbat o'tkazilib, unda shahardagi "Buvijonlar maktabi"ning rahbari Saltanat Yusupova, Termiz davlat universiteti Psixiologiya kafedrasи o'qituvchisi Nodira Xudoinazarova ishtirok etdi.



Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

Fikr

KORRUPSIYA

Davlatimiz rahbari raisligida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig'ilishida korrupsiya islohotlar yo'lidagi eng katta to'siq va g'ov ekani qat'iy ta'kidlab o'tildi va 55 ta aniq maqsadga qaratilgan tashabbus ilgari surildi.

Prezidentimiz "Islohotlarimiz natijadorligi, avvalo, sadoqatlari, fidoyi va korruptsiyaga toqatsiz yangi avlodga bevosita bog'liq. Bu ishda fikri toza yosh avlodni tarbiyalash ustuvor vazifaga aylanishi shart", degan fikrni ilgari surdi.

Korrupsiyaga toqatsiz avlodni tarbiyalash maqsadida ta'lim maskanlarida halollik g'oyalarni singdirish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash muhimligi ko'rsatib o'tildi. Shu maqsadda maktab direktorlari tarbiya fani doirasida o'g'il-qizlarimizga halollik, birovning haqqiga xiyonat qilmaslik kabi ezgu g'oyalarni sodda tilda tushuntirib borishi kerakligi ta'kidlandi.

Rektorlar talaba va yoshlarning korruptsiyaga qarshi loyihamini, startap va innovatsion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini yo'lga qo'yishi zarur ekani, umuman "Korrupsiya - kelajakka tahdid" degan g'oya asosida Yangi O'zbekiston yoshlarining qalbidan joy oladigan tizim yaratilsa, ayni muddao bo'lishi aytildi. Prezidentimizning ushbu so'zları har bir yosh yigit va qiz uchun dasturilamalga aylanishi shart, deb hisoblayman.

Albatta, yoshlarni korruptsiyaga qarshi tarbiyalashda bir nechta muhim omillarni inobatga olish kerak:

birinchidan: axloqiy qadriyatlarni shakllantirish - yoshlar ongiga halollik, adolat, hurmat va mas'uliyat kabi oliy fazilatlarni singdirish;

ikkinchidan: maktablarda va oliy o'quv yurtlarida korruptsianing salbiy oqibatlari va uning jamiyatga qanday zarar yetkazishi haqida maxsus darslar tashkil etish;

uchinchidan: yoshlarga raqamli dunyo va ijtimoiy media orqali o'z huquqlari, erkinliklari va adolatlari tizimlar haqida ma'lumot berib borish. Bu esa ularga korruptsiyani aniqlash va unga qarshi kurashish imkoniyatini yaratadi;

to'rtinchidan: ota-onalar va o'qituvchilar yoshlarni faqat bilim bilan emas, balki to'g'ri axloqiy yo'llar bilan ham tarbiyalashlari hamda yoshlarga namuna bo'lib, amaliy misollar bilan halollik va adolat yo'lida yashashga undashlari zarur. Bularning barchasi yoshlarni ijtimoiy mas'uliyatli va korruptsiyaga qarshi kurashishga tuyyor qilib tarbiyalashga yordam beradi.

- KELAJAKKA TAHDID



Biz, yoshlar bir haqiqatni aqlan, qalban va vijdanan tushunishimiz kerak. Bugungi kun yoshlari kelajak uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan avloddir. Toki biz o'sib kelayotgan uksingillarimizning korruptsiyadan tozalangan jamiyatda ulg'ayib, yashashini xohlar ekanmiz, buning uchun **bugun bor kuchimizni ayamasligimiz, bilimlarimizni mustahkamlashimiz shartdir.**

Zero korruptsianing oldini olish - davlat xizmatiga o'z kasbining haqiqiy egalarini va fidoyi kadrlarni tanlashdan, ularni "halollik vaksinasi" bilan emlashdan boshlanadi. Shu bois ishga qabul qilish tartibi va yondashuvlarini takomillashtirishga jiddiy e'tibor qaratish davr talabidir.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda har bir insonning, avvalo, o'zini nazorat qiladigan asosiy mezoni

- vijdoni uyg'oq bo'lishi, luqmasi esa halol bo'lishi kerak. Bu borada Naqshbandiy ta'limotida, Imom al-Buxoriy asarlarida farzandlarni halol luqma yedirib voyaga yetkazish, ularni o'z oиласига, Vataniga sadoqatlari, vijdoni, vatanparvar, birovning haqqidan qo'rriadigan qilib tarbiyalash eng muhim mezon ekani aytib o'tilgan.

Biz, Yoshlar parlamenti a'zolari ham korruptsiyaga "jamiyat tanasidagi saraton" sifatida qarab, bu bizning vijdanan bajaradigan burchimiz deb hisoblab, tengdoshlarimizni shu g'oya asosida birlashtiradigan tizim yaratilishida shiddatimiz, kuchimiz va bilimlarimizni safarbar etishga tayyormiz.

Nodirbek MURODOV,
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis
Qonunchilik palatasi huzuridagi
Yoshlar parlamenti raisi o'rinosbasari

Davra suhbatি

JAMIYAT TANASIDAGI SARATON

"Hammamiz yagona kuch bo'lib harakat qilsak, albatta, katta ijobiy samaraga erishamiz. Shu bois mahalla faollari, nuroniylar, ziyyolilar, yozuvchi va shoirlar, san'at va madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, taniqli shaxslar, rahbarlar, deputat va senatorlar, umuman butun jamoatchilik birlashib, korruptsiyaga "jamiyat tanasidagi saraton" sifatida qarashi kerak", degan edi Prezidentimiz Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishidagi nutqida.

Shu bois bugun ushbu illatga qarshi kurashish mamlakatmiz bo'ylab barcha sohalarda amalga oshirilmoqda. Jumladan, Mudofaa vazirligiga qarashli qo'mondonlik madaniyat markazida bo'lib o'tgan "Korrupsiya - jamiyat tanasidagi saraton" mavzusidagi huquqiy-profilaktik davra suhbatি ham shunday ezgu maqsadga xizmat qildi.

Tadbir qo'mondonlik tasarrufidagi barcha harbiy qismlarga videokonferens-aloqa tizimi orqali uzatildi. Unda so'zga chiqqanlar korruptsiya jamiyatning rivojlanishi yo'lidagi eng katta to'siq bo'lib, iqtisodiy rivojlanishning sekinlashishi, kadrlar sifatining

pasayishi va oqibatda barcha sohalarning oqsashiga, uyushgan jinoyatchilikning ildiz otishiga, hukumatga bo'lgan ishonch yo'qolishiga va ijtimoiy-siyosiy beqarorlikka sabab bo'lishini atroficha tushuntirishdi. Shu bois unga qarshi ma'lum bir soha vakillari emas, barcha birdek kurashishi zarurligi ta'kidlandi.

Samimi va ochiq muloqot tarzida kechgan tadbirda kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilanib, bu kabi profilaktik tadbirlarni tizimli ravishda o'tkazish rejalashtirib olindi.

TOQQQ matbuot xizmat



Unutilmas nom



MIXAIL FAYOZOV JASORATI

Insoniyat tarixi urushlar tarixidir, deydilar. Har holda urushlar tarixi insoniyatning o'z tarixi kabi juda qadimiy. Ko'hna tarix davomida moziyshunos olimlar fikricha, 15 mingdan ortiq urush bo'lib o'tgan. Bu urushlar 3,5 milliard insonning yostig'ini quritgan.

Tarixchilarning hisob-kitoblariga qaraganda, keyingi 5,5 ming yil mobaynida odamzod atigi 300 yilgina tinch-osoysizta yashay olgan. Bu degani taraqqiy topgan sayyoramiz ahli har yuz yilda bir haftagini tinch-omonlikda umrguzaronlik qilgan. Ayniqsa, nisbatan yangi tarix deb qaraladigan o'tgan asrda yuz bergan ikkita urush o'zining ko'lami va talafoti jihatidan mislsizdir. Bu o'rinda Birinchi va Ikkinci jahon urushlari haqida so'z bormoqda, albatta.

Insoniyat tarixining eng og'ir, eng mudhish bir davri – Ikkinci jahon urushi keltirib chiqargan mislsiz dahshatlarni yengib, urushda erishilgan g'alabaga ulkan hissa qo'shgan ko'p millatli O'zbekiston xalqining jasorati va matonati alohida ahamiyatga ega. Bu jasorat va matonatning hech qachon unutilmasligi, jasur ajdodlarimizning xotirasi abadiylashtilishi yo'lida mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan egzu ishlar tarannum etiladi.

Dunyo xalqlariga mislsiz azob-uqubatlar keltirgan, son-sanoqsiz qurbanlarga sabab bo'lgan Ikkinci jahon urushi 1945-yilning 2-sentabriga qadar davom etgan. Bu urush yadro quroli qo'llanilgan yagona harbiy to'qnashuv sifatida ham tarix sahifalariga muhrlangan.

Ikkinci jahon urushining ilk kunlaridan frontga jalb etilgan, yuksak vatanparvarlik burchini ado etgan o'zbek xalqi, avvalo, onasi, turmush o'rtog'i va farzandlari yashaydigan uyi, o'z Vatani – O'zbekistoni himoya qilishni, ona yurtiga fashizm balosini yaqinlashtirmaslikni maqsad qilib qo'yan edi, desak, yanglishmagan bo'lamiz. Respublikamizda urushga safarbar etilgan o'zbek askarları bilan bir qatorda, rus, qozoq, tojik, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq va boshqa millatlarga mansub yurtdoshlarimizning jasoratlarini ham alohida e'tirof etish joiz.

Xalqimizning Ikkinci jahon urushi davrida frontda va front ortida ko'rsatgan matonati



va qahramonligi shu qadar yuksakki, fashislarga qarshi bu urushda qozonilgan buyuk g'alabani O'zbekistonsiz, o'zbek xalqisiz, yurtdoshlarimizning qo'shgan hissasisiz aslo tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu o'rinda Sovet Ittifoqi Qahramoni Mixail Fayozovning urush davridagi qahramonliklari haqida Hoshimjon Ko'paysinovdan eshitsak.

"O'sha davrlarda shahar hokimligidan to istirohat bog'igacha tushib boradigan ko'cha ko'p yillar Mixail Fayazov nomi bilan yuritib kelgingan. Bu ko'chadan yurgen har qanday insonda, shuningdek mening yosh, qiziquvchi farzandlarimda ham "Mixail Fayazov kim bo'lgan, nega ismi ruscha-yu, familiyasi o'zbekcha?" degan savol tug'ilgan bo'lishi tabiiy hol.

Uning asl ismi Mamasharif bo'lib, otasi Mirfayoz hoji chustlik ilmli, o'sha davrlarda o'z dunyoqarashiga ega, din peshvolaridan bo'lgani, ular o'tgan asrning boshlaridagi bolshevik, kommunistlar tomonidan ta'qibga uchrab, Qozog'iston Respublikasining Jambul viloyatiga ko'chib ketgani, 1936-yilning o'rtalarida Jambul shahrining markaziy bozorida, bir necha muslimonlar peshin namozini ado etish maqsadida bir joyga yig'ilgan paytlarida bolsheviklar tomonidan qo'liga olinib, o'sha kunning o'zidayoq ayblovosiz, sudsiz shahar chekkasidagi Bibi Oysha ziyyoratxonasi yaqinida otib tashlaganini aytib berdi. Shu bois Mamasharif 1925-yilda o'sha yerda tug'ilgan va deyarli 11 yoshida otadan yetim qolgan. Onasi Soliha aya begona yurtda yolg'iz o'zlarini Mamasharifni Vatanga sadoqatli, halol inson qilib tarbiyalaydi.

Mamasharif yoshlidayoq Vatan himoyachisi bo'lishni orzu qiladi, matabda yaxshi o'qishi va harakatchanligi bilan sinfdoshlari o'tasida ajralib turadi. Ikkinci jahon urushi boshlangan paytda Mamasharif 16 yoshli yigit edi. 1942-yilning bahorida Toshkent olyi umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurtiga o'qishga yuboriladi. Ammo o'qishni tamomlamasdan frontga jo'natiladi. Natijada Mamasharif Fayazov vzvod komandiri sifatida 1943-yilning boshida jangga kiradi.

Albatta, urushda vzvodni boshqarishda unga harbiy bilim yurtida olgan saboqlari juda asqatadi. Biroq jang betalafot bo'lmaydi, deganlaridek, Mamasharif 1943-yilda og'ir jarohatlanadi. Davolanib chiqqach, 2-Ukraina frontining 78-o'qchi diviziyasida rota komandiri sifatida urushni davom ettiradi. Mazkur frontda ko'rsatgan jasorati uchun ko'plab medal va ordenlar bilan taqdirlanadi.

1944-yil. Oktabrning sovuq kunlarida Mamasharif Fayazov hayotida unutilmas voqeя yuz beradi. Dnepr daryosi yoqasidagi jangda ukrain millatiga mansub quroldosh do'sti Mixail Oleynik bilan okopda yotganda, snaryadlar uchib turgan paytda

Mixail Mamasharifga shunday deydi: "Men endi 19 yosha kiraman, bolalar uyida katta bo'lganman, na biror yaqin insonim va farzandim bor, shuning uchun urushda o'lib ketsam, mendan deyarli hech vaqo qolmaydi, agar jangda qay birimiz oldin halok bo'lsak, tirik qolganimiz halok bo'lganni ismini olamiz. Toki bu hayotdan nom-nishonsiz ketmaylik". Mamasharif ham onasining yolg'iz farzandi bo'lgani sababli do'stining taklifini qabul qiladi, Mixail Oleynik agar tirik qolsa, Jambul shahriga borib, do'stining onasini topib, unga g'amxo'rlik qilishga va'da beradi.

Endigina 19 yosha kirgan qadrdonidan bu gapni eshitib, Mamasharif to'lqinlanib ketadi, roziligini bildirib, Mixail Oleynikni bag'riga bosadi. Oradan ko'p o'tmay, Mixail Yassa atrofidagi janglarning birida og'ir yaralanib, tug'ishgandek bo'lib qolgan o'zbek qadrdoni qo'lida jon beradi. Mamasharif Fayozov esa va'dasiga binoan, o'z ismini Mixail deb o'zgartirishini so'rab, qo'mondonlikka murojaat qiladi. Albatta, ikki yigitning qadrdonligi qo'mondonlikka ham ma'lum edi. Shu tarqa Mamasharifa "Mixail Giyasovich Fayozov" deb yozilgan harbiy bilet va partiya guvohnomasi beriladi, urushdan keyin fuqarolik pasportini ham shu tarzda rasmiylashtiradi.

Harbiy komissariat vakillari Mamasharif nomi bilan urushga borib, Mixail ismi bilan qaytib kelgan o'zbek o'g'loni Fayozovni Qozog'istonning Jambul shahridan topishadi va uni Moskva shahriga taklif etishadi. Moskva shahrining Kreml binosida shaxsan sobiq Ittifoq Oliy Soveti prezidiuni raisi Mixail Shvernik tomonidan "Oltin yulduz" va Lenin ordeni topshiriladi. Bundan ko'p o'tmay, qahramonimiz o'sha Jambul shahrida uylanib, 1947-yilning boshlarida ota yurti bo'lgan Chust shahriga kelib, harbiy komissariatida o'z xizmatini davom ettira boshlaydi. 1948-yilning oxirlarida urush maydonlarida olgan jarohatlari tufayli Mixail Fayozov harbiy xizmatni davom ettira olmaydi, harbiy xizmatdan salomatligi tufayli ketishga majbur bo'ladi.

Harbiy xizmatdan so'ng Chust tumanining G'ova qishlog'ida bolalar uyiga rahbarlik qilib, urush davrida yetim qolgan bolalarning boshini silaydi va ularga otasidek g'amxo'rlik qilib tarbiyalaydi. Keyingi yillarda nafaqaga chiqqunga qadar Chustdag'i maktab-internat direktori, shahar ijrokomiteti raisining ijtimoiy masalalar bo'yicha muovini vazifalarida mehnat qilgan. Mixail Fayozovning mehnatlari munosib baholanib, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" unvoniga sazovor bo'ladi.

Bugun Chustda Fayozovlar oilasini barcha hurmat qiladi, ularning ikki nafar o'g'li va olti nafar qizi bor, barchasi otasi kabi yurtga fidoyilik bilan xizmat qilmoqda", deb so'zlarini yakunladi Hoshimjon aka.

Hoshimjon Ko'paysinov bilan bo'lib o'tgan mana shu suhbatdan keyin mening kelgusi hayotimda qaysi kasbni tanlashimga va kim bo'lishimga hech qanday shak-shubha qolmadи.

Vaqtlar o'tib, H. Ko'paysinov, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a'zosini Mansurxon Inomxonov orqali marhum qahramon Mixail otaning katta o'g'li Azamat Mixailovich bilan uchrashishga tuyassar bo'ldim va ular bilan otabobolarimizning qahramonliklari, ularidan qolgan madaniy meroslar haqidagi o'chmas xotiralar mavzusida suhbatlashdik. Azamat akaning otasi, qahramonimiz 1990-yilda 65 yoshida vafot etgan. O'g'illarining aytishicha, o'sha frontda olgan jarohati hayotining so'nggi kunigacha o'z ta'sirini ko'rsatgan ekan.

Oddiy askar
Ilyosbek G'ULOMJONOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi ilmiy va
innovations texnologiyalar vvvodi

Spartakiada

Shijoat va matonat timsoli bo'lmish harbiy xizmatchi xotin-qizlar nafaqat o'z kasbining fidoyilari, balki jismonan va ruhan baquvvat hamda jasoratlil inson sifatida barchaga o'rnakdir. Ulardagi qat'iyat, chidam va bardosh har qanday sinov oldida ham o'zini yo'qotmaslikka, doimo shay holatda bo'lishga undaydi. Sport esa bu yo'lida ular uchun eng ishonchli hamroh sanaladi. Zero sport insonni chiniqtiradi. Harbiy libos malikalari mana shu hayotiy haqiqatga doim amal qilib keladi. Ularga ko'ra, sport – bu faqatgina jismoniy tayyorgarlik emas, balki qalb mustahkamligi, iroda tobilanishi va g'alabaga ishonch demak.

Keyingi yillarda Mudofaa vazirligi tizimida harbiy xizmatchi xotin-qizlarning sportga bo'lgan qiziqishlarini yanada mustahkamlash borasida samarali ishlar amalga oshirilayotgani e'tirofga sazovor. Qo'shinlarda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchi ayollar o'ttasida spartakiada musobaqalarining an'anaviy tarzda o'tkazilishi ham ayni maqsad yo'lida xizmat qilmoqda. Bu yilgi musobaqaqada o'nga yaqin sport turi bo'yicha bellashuvlar tashkil etilgan bo'lib, unda Mudofaa vazirligi tizimidagi harbiy qism va muassasalardan kelgan jami 12 ta jamoa suzish, arqon tortish, stol tennisi, shaxmat, voleybol, badminton kabi sport turlari bo'yicha o'zaro kuch sinashdi. Ayniqsa, jamoaviy sport turlari – arqon tortish va voleybol musobaqalari ishtirokchilarning hamjihatligini va jamoaviy harakat qilish qobiliyatini yanada oshirishga xizmat qilgani bilan qiziqarli bo'ldi.

– Bir necha yildan buyon badminton sport turi bo'yicha musobaqalarda ishtiroy etib, g'alabani qo'rga kiritib kelmoqdaman, – deydi katta serjant Barno Irmatova. – Bu yil ham o'z mahoratimni namoyish e t i b , yakka

HARBIY AYOLLARNING





Ro'ziqul OCHILOV,
"Vatanparvar"



Yangilanish va yasharish bayrami

Yurtimizga yana Navro'zi olam o'z sepini yoymoqda. Bu yilgi ko'klamning fayz-u tarovati o'zgacha. Zero to'xtovsiz yog'ayotgan bahor yomg'irlari dala-dashtga zeb berib, kuzgi bug'doyzorlarni yashnatmoqda. Shunday lahzalarda kishining qalbi jo'shib ketadi. Axir bahorni kim sevmaydi, uni kim sog'inib kutmaydi? Shu bois bugun ko'ngillarda bahoriy kayfiyat hukmron.

Xalqimiz Navro'zni azal-azaldan yangilanish, bonyodkorlik, ezzulik bayrami sifatida nishonlab kelgan. Sumalak, halim, ko'k somsa kabi tansiq taomlarimiz dasturxonlarga tortilib, Navro'zi olam katta tantana bilan nishonlangan. Shuningdek, sumalak sayli, halim bazmi, darvishona, gul sayillari ham bo'lib o'tadi. Muhimi, bu bayram har birimizni homiylikka, muhtojlarga ko'maklashishga, bir-birimizga yaxshilik qilishga da'vat etadi.

NAVRO'Z TARIXI VA AN'ANALARI

Navro'z kishilar ni tabiatga yaqinlashtirgan, inson va tabiat o'rtafigi o'zaro uzviy aloqadorlikni aks ettirgan musulmon xalqlarining ajoyib va noyob madaniy-ma'naviy merosi sifatida avloddan avlodga o'tib kelyapti. Navro'zning tarixiy ildizlari miloddan avvalgi ikki minginchchi yillarga borib taqaladi. "Avesto"da keltirilishicha, Navro'zning quvonch va shodlik ramziga aylanishi qavm va qabilalar o'rtaida ibtidoiy dunyoqarashlarning paydo bo'lganidan dalolat berib, sarzaminimiz xalqlarining tabiatga, uning yaratuvchilik kuchlariga, shuningdek suv, olov, havo, tuproqqa o'xshash mayjud unsurlariga sig'inish pallasiga to'g'ri keladi.

Abu Rayhon Beruniy "Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar" kitobida Quyosh yili hisobida yilning birinchi oyi deb sanalgan Farvardin oyi to'g'risida so'zlab: "Bu oyning birinchi kuni Navro'zdir", deydi.

Navro'z yilning birinchi kuni bo'lib, uning forscha nomi ham shu ma'noni anglatadi.

Navro'zning bir necha ming yillar davomida o'zgarmay nishonlanib kelishiga sabab bo'lgan omillardan biri bu tom ma'noda xalq bayrami ekanidir. Aslida, bahor bayramlari insoniyat vujudga kelishi bilan paydo bo'lgan va ular odamlarning dunyo bo'y lab tarqalishi natijasida barcha yerlarga yoyilgan va keyinchalik barcha xalqlarda turli an'analar, har xil shakl va turli nomlar ostida nishonlana boshlagan. **Masalan, yaponlarda - "Risson", xitoylarda - "Chunpe", slavyan xalqlarida - "Maslenitsa", Markaziy va O'rta Osiyo xalqlarida esa "Navro'z" yoki "Yil boshi"** deb nom olgan.

Keling, shu o'rinda Sharq xalqlarining ulkan bayrami tarixi, an'analarini va hozirgi ko'rinishlariga, diqqatga sazovor tomonlariga to'xtalib o'tamiz.

Birinchidan, u xalq hayotining tarkibiy qismi bo'lib, eng yirik voqe, sanalarni qayd etib, ularni nishonlash uchun imkoniyat yaratgan. Darhaqiqat, bayram shunday ruhiy-hissiy kayfiyatni vujudga keltirganki, unda hamma xursand, shod va baxtiyor bo'lgan.

Ikkinchidan, bayramlar hayotning davomi hisoblansa-da, biroq u vaqtning bir xilligini buzib, unga muayyan o'zgarish baxsh etadi. Shu sababli qadimdan bayramlar o'ziga xos vaqt o'lchovi hisoblangan. Chunonchi, Navro'z - "yil boshi"ni nishonlash vaqt kelganda odamlar umrlaridan yana bir yil o'tganini his qilgan.

Uchinchidan, xalq bayramlari, jumladan Navro'z hayotning eng yaxshi tomonlarini aks ettiradigan "ko'zgu"si bo'lib kelgan. Kishilar Navro'z kuni eng yaxshi xulqlarini namoyish qilgan, go'zal libos va kiyimlarni kiyan, lazzatli taomlar tayyorlagan, o'zlaridagi qobiliyatlarini namoyish etgan. Navro'z kuni yomonlar - yaxshi, xasislar - saxiy, xunuklar - go'zal, go'zallar yanada latofli bo'lib ketar ekan.

To'rtinchidan, Navro'z ozodlik va erkinlik kuni hisoblangan. Chunki bu kun odamlar kundalik ish, vazifa, burch, tashvishlardan ozod bo'lgan. Bayram kunlari barcha tashvishlar, dard-u alamlar unutilgan, kishilar o'zini shod-u xurram bo'lishga shaylagan. Bu kuni odobsizlik, o'g'rilik, zo'ravonlik, fisq-u fasod kabilar unutilgan.

Beshinchidan, Navro'z kuni tenglik humk surgan, hamma bir qozondan ovqat yegan, bir xil tomosha ko'rgan, birga sayilgohlarga chiqib, ko'ngil ochgan.

Oltinchidan, Navro'z - tinchlik kuni hisoblangan, urushlar to'xtatilgan. Xafagarchiliklar unutilgan, o'zaro arazlashganlar yarashgan, tanishlar do'stlashgan. Bu bayramda shunday holat vujudga kelganki, unda omma ruhan birlashgan, hamjihatlik, do'stlik rishtalar mustahkamlangan.

Yettingchidan, Navro'z kunlarida vujudga kelgan ruhiy ko'tarinkilik kishilarni kelajakka ishonch bilan qarash, hayotni yanada go'zal qilishga undagan. Bu bayram arafasida kishilar bir-birini qutlagan, kelajak uchun yaxshi istaklar bildirgan, ishlariغا muvaffaqiyatlar, omad, baxt tilagan.

UDUM VA RASM-RUSUMLAR

Navro'z kuni tug'ilgan bolaning ismini Navro'z qo'yanlar. Navro'z kuni odamlar otanasi, yaqin kishilari, yigitlar unashirilgan mahbubalari bilan diydorlashgan.

Orasidan gap qo'qgan odamlarni, urishgan er-xotinlarni el og'alari Navro'z kuni yarashtirib qo'yan.

Navro'zda atrof-muhit orastalanadi, ariq-zovurlar tozalanadi, hovli-bog'lar tartibga keltiriladi. Ko'chalar, maydonlar, hovilar tozalanadi.

Navro'z dasturxoniga 7 xil daraxt bargidan namuna keltirib qo'yiladi. Ular: majnuntol, zaytun, behi, anor, bodom, pista, yong'oqlar. Shular qatorida qatiq, sut, pishloq, tuxum, baliq va yonib turgan shamlar ham qo'yilgan. Sumalak tagiga olmasligi uchun qozonga yetti yoki o'n uch dona tosh tashlab qo'yiladi.

Navro'z kuni bo'y yetgan qizlar bir joyga to'planib, chiroyli gulchambarlar yasaydi. Buloqdan ko'zalarga suv olib kelib, ichiga uzuk, sirg'a, tanga tashlaganlar. Keyin qo'shiq, laparlar ostida suvdan chiqazib olingan nishonlar baxt ramzi deb hisoblangan.

Bayram kuni odamlarning bir-birlariga shakar va shirinliklar hadya qilishi (*hayotingiz shirin bo'lsin degan ma'noda*), gullar taqdim qilishi (*go'zal bo'ling ma'nosida*), bir-birlariga suv sepishlari (*bu yil suv ko'p bo'lsin, mo'lhosil bo'lsin ma'nosida*) va boshqa bir qator odatlar keng tarqalgan.

Navro'z kuni shirinliklar yeyish eng muhim udumlardan biri bo'lgan. Navro'z tongi otganda birov gap gapireshdan oldin uch qoshiq asal yalab, uch bo'lak (*xushbo'y*) mum tutsa, ko'p kasallarga shifo bo'ladi.

Dasturxonga qo'yiladigan yana bir narsa bu katta idishga suv to'ldirib, unga ko'k barg (*ko'kat*) solib qo'yishdir. Bu odat yangi yil suvgaga va hosilga mo'l bo'lsin degan ma'noni bildiradi.

Ramazon – saxovat, birdamlik va bag'rikenglik oyi

Keyingi yillarda mamlakatimizda vijdon erkinligini ta'minlash, muqaddas isom dinining insonparvarlik mohiyatini o'zida mujassam etadigan qadriyat va an'analarni bezavol saqlash hamda kelgusi avlodlarga yetkazish, yurtimizda hukm surayotgan tinchlik-osoyishtalik, millatlar va dinlararo totuvlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, ko'makka muhtoj, nogironligi bo'lgan va ehtiyojmand insonlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Bu kabi ezgu amallar muborak Ramazon oyida amalga oshirilayotgani yordamga muhtoj insonlar qalbida shukronalik va bag'rikenglik tuyg'ularini uyg'otishi tabiiy.

Jumladan, Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitali jamoasi ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagagi qarorida ko'zda tutilgan saxovatli ishlarga o'zlarining ulushlarini baholi qudrat qo'shib kelmoqda. Aslida, mamlakatimiz bo'ylab bunday mehr-muruvvat va saxovat aksiyasi yil davomida amalga oshirib kelinadi. Ayni kunlarda esa bu harakat marafon tarzida – keng miqyosda quloch yozgan. Turli darajadagi tibbiy ko'makka muhtoj yuzlab hamyurtlarimizga shifo maskanida beg'araz yordam ko'rsatilyapti. Ular orasida oddiy fuqarolardan tortib Vatanimiz tinchligi yo'lida qahramonlarcha halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning ota-

onalari, oila a'zolari, Qurolli Kuchlar faxriyari bor.

Qo'li yengil harbiy shifokorlar neyrojarrohlik, ko'z, yurak-qontomiri va urologik yo'nalishdagi murakkab jarrohlik amaliyoti orqali ko'plab insonlarning dardiga davo topmoqda. Shuningdek, Markaziy harbiy klinik gospitalning yigirmaga yaqin davolash bo'limida ham turli kasallikkordan aziyat chekayotgan hamyurtlarimizga tegishli muolajalar ko'rsatilyapti. Abdulla Barnoyev (Sariosiyo-Uzun voqealarida halok bo'lgan Ulug'bek Barnoyevning otasi), Husan Husanov, Bahrom Allayarov (Qurolli Kuchlar faxriyari), Sardor Toshpo'latov (harbiy xizmatchi), Bahodir Isroilov, Shuhratov Xudoyerova kabi hamyurtlarimiz tajribali

harbiy shifokorlarning xizmatlaridan mammun.

Ayniqsa, kasbi taqozosi bilan xorijiy davlatlarda ko'p bo'lgan Bahodir Isroilov harbiy klinik gospitaldagi xizmat sifati va shart-sharoitlar chet eldagidan zo'rroq ekanini e'tirof etdi.

Jarrohlik bo'limlarda darddan forig' bo'lgan bu insonlar Markaziy harbiy klinik gospitalda yaratilgan shart-sharoitlar uchun davlatimiz rahbariga, Mudofaa vazirligi rahbariyatiga, shuningdek tibbiy xizmat polkovnigi Tolib Siddiqov, tibbiy xizmat podpolkovniklari Farhod Umarov va Zuhiddin G'aniyev, tibbiy xizmat mayori Ulug'bek Yusupov kabi shifokorlarga cheksiz minnatdorliklarini izhor qildi. Bundan

tashqari, baxtsiz hodisa tufayli qattiq kuyish tashxisi bilan gospitalga olib kelingan buxorolik opa-singil Farangiz va Feruza Do'stmurodovalarga ham mutaxassislar tomonidan yordam ko'rsatilyapti. Bu kabi mehr-muruvvat va saxovat yordamga muhtoj barcha hamyurtlarimizga ko'rsatilishini ta'kidlash o'rinni.

**Asror RO'ZIBOYEV,
"Vatanparvar"**



Bahs

Kelajagimiz egalari

Zeboning izdoshlari

Milliy gvardiya tasarrufidagi Toshkent "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi 1-bosqich o'quvchi-qizlari o'rtasida "Zeboning izdoshlari" ko'rik-tanlovi o'tkazildi.

Unda tanlov ishtirokchilari milliylik, sadoqat, nafosat va go'zallik, snayper qiz Zebo siyosida esa matonat, jasorat, qahramonlik, aql-idrok, bilim va zakovatni namoyon qildi.

Tanlov harbiy-kasbiy, oilaga tayyorgarlik hamda erkin mavzularda o'tkazildi.

Ishtirokchilar 1, 2, 3-o'rnlardan bir qatorda "Matonatli qiz" (harbiy-kasbiy yo'nalishida), "Eng mohir uy bekasi" (oilaga tayyorlov yo'nalishida), "Alovida iqtidor sohibasi" (erkin yo'nalishida) nominatsiyalari bo'yicha ham taqdirlandi.

**Adliya podpolkovnigi
Shohrux VAHOBOV,
Toshkent harbiy prokurorining o'rinosari**

Do'stona bellashuv

Mavjud sharoitlar, harbiy aslaha va texnikalar bilan tanishirishdan boshlangan tadbir jismoniy tayyorgarlik bo'yicha bellashuvlarga ularin ketdi.

"Palov" musobaqasi esa qatnashchilarni qiyin sharoidan munosib yechim topib chiqishga undagan bo'lsa, ochiq tabiat qo'yinda gulxan atrofidagi muloqot barchaga o'zaro fikr almashib, dildan suhabat qurish uchun ajoyib imkoniyat bo'ldi.

Vatanparvarlikni tarannum etgan kuy-qo'shiqlar hammaga ko'tarinki ruh baxsh etdi. Tadbir so'ngida faol yoshlarga kitoblar jamlanmasi hadya qilindi.

Shu kabi kuch tuzilmalari bilan hamkorlikda Xo'jaobod tumanining chegaraoldi hududi Qutlug'murod mahallasida yoshlar va maktab o'quvchilari ishtirokida vatanparvarlik tadbiri ham tashkil etildi.

**Adliya mayori Rustam SOBIROV,
Andijon harbiy prokurorining katta yordamchisi**

Tanlov

Yangi O'zbekistonning vatanparvar ayollari

Yangilanish, yasharish fasli bahor ayyomi latofatli opa-singillarimizning bayrami bilan boshlanadi. Bugungi rivojlanishlar jarayonida o'zbek xotin-qizlarining o'mi katta albatta. Shu munosabat bilan Sirdaryo viloyatida o'z faolligi bilan yurtimiz tinchligini himoya qilish yo'lida faoliyat olib borayotgan harbiy xotin-qizlarimiz hamda harbiylarning rafiqalari ishtirokida "Yangi O'zbekistonning vatanparvar ayollari" ko'rik-tanlovi o'tkazildi.

Sirdaryo tumanining Intilish mahallasidagi madaniyat markazida o'tkazilgan tanlova qatnashchilar 5 ta shart asosida bellashdi. Natijalar hakamlar hay'ati tomonidan xolislik, adolat mezonlari asosida baholab borildi.

Har bir ishtirokchi tanlova o'ziga xos katta tayyorgarlik bilan kelgan. Sahnadagi chiqishlar shijoatlari xotin-qizlarimizning o'zgacha iste'dodi borligini ham namoyon etdi.

To'maris siyosini sahnada o'z talqinlari orqali mahorat bilan ijro etgan vatanparvar xotin-qizlarimizning chiqishlarini tomoshabinlar olqishlar bilan kutib oldi. Tanlov ishtirokchilari barcha shartlarni hamjihatlik, hamfikrlik asosida jamoa bo'lib bajardi.

Ta'kidlash kerak, ayol jamiyatda qanchalik faol bo'lmasin, u oilda uy bekasi. Shundan kelib chiqib, tanlov ishtirokchilari milliy taomimiz palovni maromiga yetkazib tayyorladi. Hakamlar hay'ati jamoalarning pazandalik shartidagi mahoratini yuqori baholadi.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tashabbusi bilan tashkil etilgan tanlov o'z navbatida vatanparvar ayollarimizning tashabbuskorligini ham sinovdan o'tkazdi. Tomoshabinlarning qo'llab-quvvatlashi natijasida g'oliblar aniqlandi. Harbiylarning oila a'zolari hamda harbiy ayollar tarkibidan tuzilgan jamoalarning har bir chiqishi e'tirof etildi.

Tanlov g'oliblariga tashkilotchilarning esdalik sovg'alari topshirildi.

**Adliya podpolkovnigi Botir SOBIROV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi**

Huquqiy profilaktika

Xorazm viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi chaqiruv punktida o'rganishlar olib borildi.

O'rganish davom etmoqda

Jarayonda chaqiruv komissiyasi a'zolari va tibbiyot xodimlari bilan suhbat o'tkazilib, ularga chaqiruv mavsumini sifatlari o'tkazish, ishlarni samarali tashkil etish va korrupsiya holatlariiga yo'l qo'ymaslik borasida ko'rsatmalar berib o'tildi.

Shuningdek, Urganch tumani Oq oltin mahallasida mutasaddilar hamkorligida otaliqqa olingan yoshlar muammolarini aniqlash va hal etish, ularni kasbga yo'naltirish, bandligini ta'minlash maqsadida 39-u umumta'l'm maktabida "Prokuror va yoshlar" uchrashuvni o'tkazildi.

Bundan tashqari, Qo'shko'pir tumani favqulodda vaziyatlar bo'limida shaxsiy qabul tashkil etilib, 4 nafar harbiy xizmatchining muammolarini tinglandi va huquqiy tushuntirishlar berildi.

Xiva tumani va shahri favqulodda vaziyatlar bo'limlarda esa tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar bilan o'quv-mashg'ulot tashkil etildi.

**Adliya podpolkovnigi
Umid NIZAMOV,
Urganch harbiy prokurori**

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida



Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar qalbida vatanparvarlik hissini uyg'otish, mustahkamlash va kuchaytirishga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, bu muhim vazifani bajarishga O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Qashqadaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Koson tumani o'quv sport-texnika klubi jamoasi ham munosib hissa qo'shib kelmoqda.



MUHIM VAZIFAGA MUNOSIB HISSA



Jumladan, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, ularni sportning texnik va amaliy turlariga jabb etishga hamda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega farzandlar sifatida voyaga yetkazishga yo'naltirilgan tadbirlar bu boradagi ishlar sirasidandir.

Ayniqsa, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishi va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash maqsadida ko'plab hamkor tashkilotlar bilan kelishilgan reja asosida ish olib borilayotgani o'zining ijobji samarasini bermoqda. Chunonchi, Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan bevosita tuman hokimligi, mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limgari hamda Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi bilan birqalikda ko'plab tadbirlar amalgalashmoqda.

- Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o'yinlari va sport turlarini ular orasida ommalashtirish va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlar shular jumlasidandir, - deydi O'STK boshlig'i Sardor Qurbonov. - Bir so'z bilan aytganda, endilikda yoshlar orasida harbiy-vatanparvarlik va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda ularni klubda faoliyat ko'rsatayotgan sport to'garaklariga jabb etishda yoshlar e'tiborini tortadigan g'oya va tashabbuslar ishlab chiqildi. Ayni paytda O'STK qoshida "Havo miltig'idan o'q otish",

"Duathlon" hamda "Karting" kabi seksiyalar faoliyat yuritmoqda. Klub a'zolari viloyat va respublika musobaqalarida g'oliblikni qo'ldan bermay kelmoqda. Masalan, yaqinda viloyat miqyosida o'tkazilgan o'q otish musobaqasida ishtirot etgan kosonlik mernagan shohsupaning yuqori pog'onasiga ko'tarilib, g'oliblikni qo'liga kiritdi.

Shu kunlarda 50 nafarga yaqin o'smir sport to'garaklarida mashg'ulot o'tamoqda. Albatta, klubda sportchi yoshlarning muntaзам shug'ullanishi uchun qulay imkoniyat va sharoitlar yaratilgan.

Maqsad yosh avlod o'rtaida sportni ommalashtirish, shuning barobarida ular o'rtaida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishdan iboratdir.

Tashkilot faoliyatining muhim yo'nalishlaridan yana biri ommaviy kasb xodimlarini tayyorlashdir. Ayni paytda bu yo'nalishda "B", "BC", "C", "E" toifali haydovchi mutaxassislar tayyorlanmoqda. Buning uchun tashkilot yetarli o'quv-

moddiy bazaga ega. Barcha kerakli texnik qurilmalar hamda avtotransport vositalari bilan ta'minlangan.

Akbar ALLAMURODOV



Fursatdan foydalaniib, "Vatanparvar" tashkiloti Koson tumani o'quv sport-texnika klubi jamoasi barchangizni yasharish va yangilanish fasli bo'lmish bahor ayyomi - Navro'zi olam bilan muborakbo'd etadi.

Yurtimiz tinch, o'smonimiz hamisha musaffo bo'lsin!

Bayramingiz muborak bo'lsin, aziz yurtdoshlar!



Salomatlik

Kognitiv buzilishlar – bu shaxsnинг тафаккури, хотириси, диққат-е’тибори ва бoshqa ма’навијија функциялари камайishi bilan bog’liq holat. Ushbu buzilishlar insonning hayot faoliyatiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Улар yengil shakldan og‘ir demensiyagacha bo’lishi mumkin.

KOGNITIV BUZILISHLAR

agliy faoliyatga ta’sir qiladi



TURLARI

Yengil kognitiv buzilishlar – хотира, диққат ёки фикрлеш жаронларда кичик muammolar kuzatiladi, lekin bu holat shaxsnинг kundalik faoliyatiga jiddiy ta’sir qilmaydi. Masalan, odam tanish ismlarni unutishi, so’zlarni tanlashda qynalishi mumkin.

Og‘ir kognitiv buzilishlar (demensiya) – bu holat shaxsnинг mustaqil hayot kechirish qobiliyatiga jiddiy ta’sir ko’rsatadi. Uning eng keng tarqalgan turlari quyidagilar:

Alsgeymen kasalligi – neyrodegenerativ kasallik bo’lib, хотира va fikrlesh qobiliyatining barqaror yo’qolishiga olib keladi.

Qontomir demensiyasi – miyaga qon oqimi yetishmovchiligi tufayli kelib chiqadi va ko’pincha insultdan keyin rivojlanadi.

Levi tanachalari demensiyasi – har qanday shakldagi demensiyaga xos bo’lgan хотира yo’qotish va fikrleshdagi qiyinchiliklar bilan birga gallyutsinatsiyalar va harakat buzilishlari kuzatiladi.

SABABLARI

Kognitiv buzilishlarga ko’plab omillar ta’sir qiladi. Улар орасида eng keng tarqalgan sabablар quyidagilar:

- yoshga bog’liq o’zgarishlar;
- neyrodegenerativ kasalliklar (Alsgeymen, Parkinson);
- bosh miya jarohatlari;

- qontomir muammolari (*insult*);
- stress va uzoq muddatli depressiya;
- vitamin yetishmovchiligi (*ayniqsa, B₁₂ va foliy kislotsasi*);
- alkogolizm va zaharlanish.

BELGILARI

- хотира sustlashishi;
- diqqatni jamlashda qiyinchilik;
- mantiqiy fikrlashda muammolar;
- so’zlarni unutish yoki noto’g’ri qo’llash;
- kundalik faoliyatda qiyinchiliklar (*masalan, oddiy hisob-kitoblarni bajara olmaslik, tanish joylarda adashish*).

OLDINI OLISH VA DAVOLASH

Kognitiv buzilishlarning oldini olish va ularni davolash usullari turlicha bo’lishi mumkin. Quyida ushbu muammoning rivojlanishini sekinlashtirishga yordam beruvchi usullarni keltiramiz:

1. Faol hayot tarzi. Jismoniy faoliyat miya faoliyatini yaxshilaydi. Yurish, yugurish, suzish va yoga kabi mashqlar foydalik hisoblanadi.

2. To’g’ri ovqatlanish. Omega-3 yog’ kislotalari va antioksidantlar miya uchun juda muhimdir. Bاليq, yong’oq, meva va sabzavotlar ratsioningizda bo’lishi kerak.

3. Intellektual mashg’ulotlar. Kitob o’qish, shaxmat o’ynash, yangi tillar o’rganish kabi faoliyatlar miyaga ijobiy ta’sir qiladi.

4. Diqqat va xotirani rivojlantiruvchi mashqlar. Mnemonika usullaridan foydalinish, krossvord va boshqa intellektual o’yinlar o’ynash miya faoliyatini yaxshilaydi.

5. Tibbiy ko’rik va davolash. Agar siz yoki yaqinlaringizda kognitiv buzilishlar kuzatilayotgan bo’lsa, nevropatolog va psixologga murojaat qilish tavsiya etiladi. Ertalaniqlangan kasallikni davolash osonroq bo’ladi.

Kognitiv buzilishlar har qanday yoshda rivojlanishi mumkin, lekin ularning oldini olish mumkin. To’g’ri hayot tarzi, miyani faol holatda ishlatalish va muntazam tibbiy ko’riklar bu muammoning oldini olishda katta ahamiyatga ega.

BOLALARDA BU HOLAT QANDAY KECHADI?

Bolalarda kognitiv buzilishlar – bu tafakkur, хотира, diqqat, nutq va o’rganish qobiliyatiga ta’sir qiluvchi nevrologik yoki psixologik muammolar bo’lib, ular bolaning akademik va ijtimoiy hayotiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin.

Unga quyidagi omillar sabab bo’ladi: genetik omillar – Daun sindromi, autizm spektri buzilishlari (ASB), hushsizlikka olib keluvchi kasalliklar;

neyroinfeksiya va jarohatlar – meningo, ensefalist, bosh miya jarohatlari; og‘ir tug’uruq yoki homiladorlik muammollari – kislordan yetishmovchiligi, tug’uruqdagi jarohatlar;

stress va psixologik omillar – oiladagi muammollar, zo’ravonlik, depressiya; qo’shimcha tibbiy holatlar – giperaktivlik va diqqat yetishmovchiligi sindromi (SDVG) hamda epilepsiya.

Shuningdek, ovqatlanish va vitamin yetishmovchiligi – B₁₂, D vitaminini, yod yetishmovchiligi ham miya rivojlanishiga ta’sir qilishi mumkin.

QANDAY NAMOYON BO’LADI?

Bolaning xotirasida muammolar paydo bo’ladi. Masalan, u yangi ma’lumotlarni yodlashda va diqqatni jamlashda qiyinchilikka duch keladi. Bu holat o’qish va yozishda ham kuzatiladi: u harf yoki so’zlarni noto’g’ri yozadi, o’qishda tushunish muammolari yuzaga keladi.

Nutqiyl rivojlanishda ortda qoladi – kech gapira boshlaydi, so’zlarni noto’g’ri talaffuz qiladi.

Tafakkur va mantiqiy fikrlashda qiyinchilikka duch keladi – masalalarni yechishda qiynaladi.

Ijtimoiy moslashishdagi muammo – tengdoshlar bilan muloqot qilishga qiynaladi.

DAVOLASH VA KORREKSIYA

Kasallikni davolashda avvalo to’g’ri tashxis muhim ahamiyatga ega. Shundan so’ng bemor nevropatolog, psixolog va logoped ko’rigidan o’tadi.

Davolash jarayonida individual o’quv dasturi asosida maxsus pedagoglar tomonidan korreksion mashg’ulotlar o’tkaziladi. Nutqiyl rivojlanishdan ortda qolgan bolalar uchun nutq terapiysi olib boriladi. Miya faoliyatini rivojlantiruvchi o’yinlar – shaxmat, pazllar, хотира mashqlari amalga oshiriladi.

Shuningdek, bu jarayonda to’g’ri ovqatlanishga ham katta ahamiyat beriladi. Chunki ovqat orqali organizmga kirgan zarur vitamin va minerallar miya faoliyatini rivojlantiradi. Yana asab tizimini mustahkamlash uchun sport va jismoniy mashqlar o’tkaziladi.

Agar bolada kognitiv buzilishlar belgilari kuzatilsa, ertalaniqning va to’g’ri korreksiya uning kelajagiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Tibbiy xizmat mayorи
Mahmudjon MUSTAFOQULOV,
Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy
klinik gospitali katta ordinatori

Milliy o'zlik



O'ZBEKNING LIBOSI

Yaqinda kursdosh do'stlarni yo'qlab Urgutga bordim. Avvalo diyordi, qolaversa, qaytayotib Urgutning mashhur bozorini ham bir aylanishni o'ylagandim. Choponning yaxshisi, do'ppining zo'ri Urgutda bo'ladi, deyishgan edi, sotib olib bir kiyay, sabil qoladigan bu dunyoda, deb niyat qilgan edim.

Fursat topilib, o'sha bozorni oraladik. Eh-he, narigi chetiga yura-yura yeta olmaysiz, narsalarni ko'ra-ko'ra ulgurolmaysiz. Shunaqa katta! "Go'ro'g'li" dostonidagi Ravshanxonga o'xshab, "Qalpoq bozori qaydadir?" deya so'rab joyini ham topdik. Ana nomi chiqqan do'ppibozor, yonida - dong'i chiqqan to'n bozori! Yuzlab hunarmandlar yoyib tashlashibdi do'ppini. O'zları ham reklama qilib, boshga qo'ndirib olgan. Chopon degani-ku, uyulib yotibdi, yuk tashiydigan bahaybat "fura"lar bor-ku, ana o'shalarga bosib olib ketsangiz ham tugamaydi. Rang-barang, xilma-xil! Rosa aylandik. Sotuvchilar ham telegramda aylandi.

Ammo... do'ppi ham sotib ololmay, chopon ham xarid qilolmay, bo'sh qo'l bilan, bo'shashibgina chiqib ketdik. Nimaga, deng?

Odam kiyadigan emas kiysa badani yayraydigan emas bu matohlar! Bari yolg'on do'ppi, qalbaki chopon, soxta "milliy liboslar" bo'lib chiqdi.

To'ning avra-astari Xitoyning sintetik gazlamasi desak, uning ichi - oraga paxta emas, "gubka" solib qavilar ekan, ya'ni yuz foiz kimoviy chopon. Hatto, "qavilgan" desak ham xato, uning qavig'i chevarning qo'lidan chiqmas, mashinada tikilarkan! Bunaqa to'nni tong saharda kiysangiz - sovvottiradi, peshin kiysangiz - qizdirib, suv-suv terlatadi. Kasal bo'lmoqchi bo'lsangiz, sotib oling-da, kiyavering! Odamdan manikening farqi qancha bo'lsa, haqiqiy to'n bilan bu "chapan" orasidagi tafovut shuncha.

Do'ppilar-chi? Bunda ham o'sha gap. Bola chog'imizda onamning do'ppi tikkalari yodimga tushdi: ingichka po'lat sim girdiga

oppoq qog'oz tasmachasi burab o'ralar, tasmalar o'sha sim bilan do'ppi kizagidagi orasi bir millimetrik kelib-kelmaydigan qator qaviqlar ichiga kiritilar, sim teskari burab chiqarib olingach, boyagi qog'oz o'sha joyida qolardi. Hozirgi "do'ppi"larda esa qog'oz yo'q, baxyalar orasiga baliq tutadigan "leska" shnur bor-ku, o'sha shundoq kiritib qo'ya qolinarkan. Demak, bu do'ppining hamma yog'i sintetika. Ichi ham, sirti ham, hatto o'rtasi ham! Fanerdan yasalganday qattiq, chertsangiz, taqillarydi. Ustiga bir choynak choy qo'ying, qilt etmay ko'tarib turaveradi. Ammo bu "do'ppi"ni bosh ko'tara olmaydi, ko'p kiyagan odam xastalanib qolishi turgan gap. Tepasi va yonidagi ipak gullarni ham, kompyuterli avtomat "standart" qilib bir lahzada tikib tashlagan.

Ilgari har bir o'zbek yigitni o'z boshida bir san'at asarini ko'tarib yurardi - do'ppido'z ayol oppoq ipak qatimi yuz martalab chatib, tepadagi "qalampir" va kizak tevaragidagi "munchoq" naqshlarni taglikka tikkan, ya'ni har bir do'ppining har bir nuqtasi qo'ldan o'tib, san'at asariga aylangan. Shu sababli hatto biror juvonning ketma-ket tikkan ikkita do'ppisi ham bir-biriga to'liq o'xshamas edi.

Qo'l hunari, san'at asari! Qolaversa, har bir viloyatning, hatto har bir tumanning o'z do'ppisi bo'lardi: Andijon, Marg'ilon, Qo'qon, Chust, Shahrisabz, Kattaqo'rg'on do'ppisi... Bolalar uchun tagligi yashil yo ko'k tusli, gullari sariq, yashil-u pistoqi do'ppilar, kattalarning qora taglikka oppoq ipak bilan naqsh solingan do'ppilar...

Manavi do'ppilarning guli esa obdan chiroyligi, ammo hammasining guli bir xil -

"konveyer"dan chiqqan. Ularni san'at asari deb bo'ladimi?

Sovet zamoni milliy hunarmandligimizni yo'qotishga obdan urindi. Shoyi to'quvchilar, chevarlar, kavushdo'zlar, beshikchilar, kulollar, gilamdo'zlar... hammasi ta'qib qilinar edi. Odamlar uydagi biror xona ichida yashirin xona qurvolib, o'sha nimqorong'i, zax joyda atlas to'qirdi. Xuddi jinoyatchi kabi, yashirinchcha sotar edi. Do'ppifurushlarni melisa ushlar, mahsido'zlarga kun bermas edi.

Beqasam choponlar, banoras to'nlar patorat topdi. Ko'kqarg'a shoyi belbog'lar girdiga arabcha yozuvda kelishtirib bayt yo oyat bitadigan qiz-juvonlar bu ishini tashlab, "fabrika yo'lida ro'molcha topib oladigan" bo'ldi. Odamlar palto kiyishga o'tdi, kimmingdir egnida to'n ko'rsak, azador ekan, deyidigan bo'lib qoldik.

Hozir-chi? Istiqlol milliy san'atga, hunarmandlikka katta yo'l ochdi. Uni kengaytirishni, taraqqiy ettirishni taqozo etdi. Hukumatimiz qariyb chorak asrdan beri milliy hunarmandlik rivoji uchun ko'p choralar ko'rdi. Hunar ahliga beriladigan imtiyozlar yilma-yil yana ko'paytirilayti, bu o'rinda ularning hammasini birma-bir aytib tugatolmaymiz. Biroq hatto o'sha istibdod zamonida bir amallab jon saqlagan o'zbek hunarmandligi nima sababdan bugun tobora xira tortib, omonat narsaga aylanib qolyapti?

Hamma aybni "olabo'ji globallahuv"ga, bozor iqtisodiyotiga to'nkab, osongina javob topib qo'ya qolish qiyinmas. Chunki bundan hech kim xafa bo'lmaydi. Biroq bizningcha, buning sababi usta va ustazodalarga yengillik, imtiyoz berish barobarida ulardan ish sifatini uncha talab qilmayotganimiz, san'at deb sanoatni pesh tutayotganiga indamayotganimiz, qo'l hunarini barbod etayotganini ko'rib turib, ko'z yumayotganimizdir. Hunarmand birodalarimiz bu imtiyozlarni shunchaki "yengillik" deb emas, balki o'z san'atlarini, ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishga da'vat, in'om deb bilsalar, yaxshi bo'lar edi. Shunday tushunayotganlar ham yo'q emas, bor. Masalan, kulol ustalarning sopol lagan va oftobalariga qarab ko'z quvnaydi, milliy pichoqchilik yanada ravnaq topyapti. Ammo ba'zi hunarmandlar o'z mahsulotini kishi sog'lig'iga ziyon yetkazadigan materialdan yasab yoki shunday narsalarni qo'shib tayyorlashiga indamay qarab turish o'shanday qiliqlarga yanada kattaroq yo'l o'chib beradi.

Xalq amaliy san'atida kimoviy materialarga o'rin bo'lmasligi kerak. O'ta qalin, etagi yerda sudraladigan, avra-astari sintetik choponni kim kiyib ko'chada yura oladi? Chopon-u do'ppi ham mayli, hatto beshiklarning lokli bo'yoq bilan bo'yalishi, tuvak va sumaklarni plastmassadan

yasash, murg'ak go'dak yotadigan ko'rpacha va uni o'rab turadigan gahvoralarini sun'iy matolardan tikish kabi sirti yaltir-yultir, chiroyl, lekin bolaning sihatiga zarari naqd bo'lgan qallobliklar bor. Ular bolani ortiqcha terlatadi, terini shimmaydi, oqibdat tez shamollaydigan qilib qo'yadi. Bunaqa ucharmaxsum kosiblarning asosiy maqsadi hunar emas, unar - pul topish bo'lib qolgan. Qanday qilib bo'lsa-da. Ularni tiyib qo'yish uchun bozorda birov-yarim kosibni insofga chaqirish yoki bitta-yarimta maqola yozib, ayblab o'tirish kifoya emas. Foydasi yo'q. Birdan bir chorasi - o'shanday nobop mahsulot chiqargan "usto"lar ishini rag'batlantirmslik.

Ya'ni o'zbek hunarmandligida sun'iy va sintetikashyolardan narsa tayyorlanmasligidan kelib chiqib, unday mollar kishi sog'lig'iga ziyon yetkazishini hisobga olib, qallob hunarmandlarga har qanday soliq imtiyozlarini joriy etishni to'xtatish kerak. Bu chora milliy hunarmandligimizning ravnajiga ziyon emas, nafl keltiradi.

Banoras, qora va ko'k satin, beqasam ishlab chiqarishni yana yo'lga qo'ysak, turlarini ko'paytirsak, odamlar yana qulay, yumshoq, chiroyl chopon kiyishga o'tadi, bahordan to kuzgacha boshidan do'ppi tushmaydi. Shamollamay, sog'liqlari yaxshilanadi.

Yaqinda Toshkent shahri hokimi Shavkat Umurzoqov "Toshkent shahrida milliylikni keng targ'ib qilishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida" qaror chiqardi. Bu qarorda, jumladan davlat idoralarining xodimlari haftaning bir kunida milliy kiyimda bo'lislari belgilangan. O'zbekman degan odam buni alqaydi. O'zligimiz yana qaytayotganidan bir nishona, qutlug' mujda bu! Biroq uni bir "kampaniya"ga, ishxonadagi stol tortmasiga buklab solib qo'yiladigan bitta do'ppi yo bir durra bilan "bajardikmi-bajardik" kampaniyasiga aylantirish kerak emas. Yon qo'shni qozoq va qirg'izlarda barcha anjumanlarda eng oliy martabadagi rahbarlarga qadar hamma qalpoq kiyadi, har yili "Qalpoq kuni" bayrami o'tkaziladi. Biz ham milliy oriyatimizni uyg'otsak, qo'shnilarдан o'nak olsa, yaxshi bo'lardi.

O'z milliy libosidan voz kechgan el ichida manqurt ko'payadi. Manqurt zamona yiy odam bo'lib ko'rindi-da. O'shanaqalarning kasriga xalq o'zligidan voz kecha-kecha millat sifatida yo'olib ketishga o'zini mahkum etadi.

Zuhriddin ISOMIDDINOV

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririysi bilan bog'lanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

VATANPARVAR



MUASSIS
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz



t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

Tahririyat kengashi:
general-major Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabeck Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazardan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti - "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahilafandal.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: katta leytenant Dilshod Ro'ziqulov
Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva
Musahih: Mastura Qurbanova

Buyurtma: V-5913
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 33 408 nusxa
Bosishga topshirish vaqt: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashitigan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqsa boshlagan.

Nashri ko'satkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.



www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@mail.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya